

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

“BINO VA INSHOOTLAR QURILISHI” kafedrası

“MUHANDISLIK GEODEZIYASI” fanidan

MA`RUZALAR MATNI

| | |
|---------------------------|---|
| Bilim sohasi: | 300 000 – Ishlab chiqarish texnik |
| Ta'lim sohasi: | 340000 – Muhandislik geodeziyasi va qurilish |
| Ta'lim yo'nalishi: | 5340800 – Avtomobil yo'llari va ayerodromlar |
| | 5340600 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi. |

JIZZAX – 2019

Ushbu ma'ruzalar matni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2018 yil 14 iyunagi 531-sonli buyrug'ining 20-ilovasi bilan tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur ma'ruzalar matni 5340800 – “Avtomobil yo'llari va ayerodromlar”, 5340600 – “Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi” ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

“Arxitektura va qurilish” fakultetining ilmiy-uslubiy kengash yig'ilishida (2019 yil “27” avgust № 1 bayonnomasida) ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Fakultet dekani:

A.Berdiqulov

“Bino va inshootlar qurilishi” kafedrasida majlisida (2019 yil “26” avgust № 1 bayonnomasida) ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Kafedra mudiri:

N.Asatov

O'UMni ishlab chiqqan tuzuvchilar:

- A.X.Tulyaganov – Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti “Muhandislik geodeziyasi va yo'l qurilishi matyeriallari” kafedrasida dotsenti
- M.M.Mirzaxmedov – Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi instituti “Muhandislik geodeziyasi va yo'l qurilishi matyeriallari” kafedrasida dotsenti
- Xudaykulov N. – Jizzax politexnika instituti «Bino va inshootlar qurilishi» kafedra katta o'qituvchisi.
- Karabekov U. - Jizzax politexnika instituti «Bino va inshootlar qurilishi» kafedra assistenti.

Taqrizchi:

Ganiyev A.G. - - “Bino va inshootlar qurilishi” kafedrasida dotsenti, t.f.n.

“MUHANDISLIK GEODEZIYASI” fanidan (Ma'ruzalar matni). – Jizzax: JizPI, 2019 yil

KIRISH

Ushbu ma’ruzalar matni “Muhandislik geodeziyasi” fanining namunaviy o’quv rejasi, namunaviy o’quv dasturi va ishchi o’quv rejalarini asosida oliy ta’lim muassasalarining 5340800 – Avtomobil yo’llari va ayerodromlar 5340600 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi ta’lim yo’nalishi talabalariga “Muhandislik geodeziyasi” fanidan o’tiriladigan ma’ruza darslari uchun yozildi.

Mazkur ma’ruzalar matnini tayyorlashda oliy o’quv yurtlarining 5340800 – Avtomobil yo’llari va ayerodromlar 5340600 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi ta’lim yo’nalishi bo’yicha ta’lim olayotgan talabalar uchun yozilgan darsliklar va o’quv adabiyotlaridan foydalanildi.

Ushbu ma’ruzalar matni DTS lariga to’liq mos keladi, “Muhandislik geodeziyasi” fanining namunaviy o’quv rejasi, namunaviy o’quv dasturi va ishchi o’quv rejalarini asosida yozilgan.

Ma’ruzalar matnini yozishda “Muhandislik geodeziyasi” fanining ishchi o’quv rejasiga ko’ra 5340800 – Avtomobil yo’llari va ayerodromlar 5340600 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi ta’lim yo’nalishlariga o’qitiladigan dastlabki umumkasbiy fani ekanligi, talabalarning bu fanni o’rganishga hali yetarli tayyor emasliklarini hisobga olib, uni soddalashtirishga harakat qilindi.

“Muhandislik geodeziyasi” fanining namunaviy o’quv rejasi, namunaviy o’quv dasturi va ishchi o’quv rejalarida ko’zda tutilgan hajmda byerilgan. Shuningdek, ma’ruzalar matnida geodezik o’lchashlarda qo’llanadigan geodezik asbob-uskunalar bilan ishlash tartiblari to’g’risida umumiy ma’lumotlar keltirilgan.

Ma’ruzalar matnini nashrga tayyorlash, foydalanishda sezilgan kamchiliklar, ma’ruzalar matni to’g’risidagi taqriz va muhokamalar e’tiborga olindi.

Mazkur ma’ruzalar matni shu sohadagi “Muhandislik geodeziyasi” fanidan ma’ruza darslarini o’tirish uchun ilk ma’ruzalar matni bo’lgani sababli, mualliflar ushbu ma’ruzalar matni to’g’risida bildirilgan barcha tanqidiy fikr va mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qiladilar.

UMUMIY MA'LUMOTLAR

1. “Muhandislik geodeziyasi” fani va uning vazifalari So'z boshi o'rnida

Respublikamizda xalq xo'jaligida hozirgi zamon qurilishi xalq xujaligining kompleks tarmog'i bo'lib, u qurilish matyeriallari ishlab chiqaradigan minglab korxonalar, yirik uy qurish kombinatlari hamda temir-beton buyumlari va po'lat konstruksiyalar zavodlariga ega. Unlab ilmiy tadqiqot va yuzlab loyihalash institutlari qurilishning ilmiy markazini tashkil etadi.

Geodeziya yerning shakli va o'lchamini o'rganuvchi fan bo'lib, undan turli inshootlarni loyihalash va qurish ishlarida ham keng qo'lamda foydalaniladi.

Mamlakatimiz bo'ylab olib borilayotgan barcha qurilish ishlarida turli geodezik o'lchash ishlari bajariladi. “Muhandislik geodeziyasi” fanidan laboratoriya ishlari uchun uslubiy ko'rsatmada inshoot loyihasini joyga ko'chirish, qurish va ishlatish davridagi geodezik ishlarni bajarish usullari ham o'rganiladi. Shunday qilib, yer yuzining Rasmi va kattaligini aniqlab, uni qog'ozda plan, karta va profil holida tasvirlash hamda inshootlarni barpo qilishda turli geodezik o'lchash ishlarni o'rganish bilan shug'ullanadi.

“Muhandislik geodeziyasi” fani halq xo'jaligidagi turli qurilish ishlarida, shuningdek, mudofaa ishlarida ham muhim o'rinni egallaydi. Masalan, biror yo'l qurish yoki kanal qazishdan oldin ularning puxta, arzon bo'lishi va tez bitishi e'tiborga olinib, shu yo'l yoki kanal trassasi (o'q chiziq) uchun qulay joy taxminan belgilanadi. Bu ish rekognossirovka deyiladi. So'ngra, tanlangan trassa bo'ylab geodezik tayanch shoxobchalar barpo qilinadi va gorizontal hamda vertikal s'yomka (plan olish) ishlari bajariladi. S'yomka matyeriallariga ko'ra, shu joyning topografik plani, nivelirlash natijalariga ko'ra esa trassaning bo'ylama va ko'ndalang profillari chiziladi. Plan va profillarga qarab, unda quriladigan turli inshootlar o'rni aniqlanadi va loyihalanaadi, keyin yer qazish ishlari hajmi topiladi. Qurilishga sarf bo'ladigan mablag' aniqlanadi.

Qurilish ishlarni boshlashdan oldin loyihadagi asosiy nuqtalarni, ya'ni qurilish o'rnini joyda ko'rsatish kyerak. Bu ish loyihani joyga ko'chirish deyiladi. Loyihani joyga ko'chirish ishi ham geodezik o'lchash ishlari orqali bajariladi. Qurilish jarayonida inshootning to'g'ri qurilayotganligi ham geodezik kuzatishlar yordamida tekshirib boriladi.

Hozirgi zamon qurilishining o'ziga xos xususiyati uning mujassamligi, ob'ektlarning yirikligi, ularning qurilish konstruksiyalari va Muhandislik jihozlarining murakkabligi, shuningdek, qurilish konstruksiyalari elementlarining tutashmalari va uzellarining aniqligiga nisbatan quyilayotgan talabning orta borishidir.

Yuqorida kursatilgan xususiyatlar bilan birga, qurilishning nixoyatda industrilashtirilishi va mexanizatsiyalashtirilishi natijasida uning texnologiyasi tubdan uzgarib ketdi, unumsiz qo'l mehnati juda kamaydi, qurilish maydonchasi syerunum mashinalar va mexanizmlarga boy montaj qilish maydonchasiga aylandi.

Hozirgi zamon qurilishi inshootlar konstruktiv sxemasini va ularning Muhandislik asbob-uskunalari texnologik sxemalarini yig'ishda juda katta aniqlik talab qiladi, bunda O'qlar va gorizontlar o'tkazishda millimetr va uning ulushlaricha chetga chiqishga yul quyiladi. Shu sababli aniq geodezik ulchashlar va yasashlar qurilishmontaj ishlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sababli ham quruvchi uchun geodeziyani bilish shart. Qurilishda geodeziya kursini o'rta maxsus yurtlarining

5340800 – Avtomobil yo'llari va ayerodromlar, 5340600 – Transport inshootlarining ekspluatatsiyasi ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan.

1—Ma’ruza
“Muhandislik geodeziyasi” faniga kirsh
Reja:

1. Geodeziya va geodezik ishlarning rivojlanish tarixi bo‘yicha qisqacha ma’lumotlar.
2. Geodeziya fani, uning tarmoqlari va halq xo‘jaligidagi ahamiyati.
3. Yerning shakli, o‘lchamlari va uning geodeziyadagi o‘rni.
4. Geodeziyada qabul qilingan koordinatalar tizimi.
5. Chiziqlarni orientirlash va orientirlash burchaklari.
6. Davlat geodezik to‘rlari.

Tayanch so‘zlar va iboralar: Geodezik o‘lchash ishlari, geodeziya va tarmoq fanlar, geodeziya tarixi, yer shakli, geoid, sferoid, Byereniy geodezik o‘lchamlari. Koordinatalar tizimi, Gauss koordinatasi, to‘g‘ri burchakli yassi koordinata bosh myeridian, geografik koordinata, rumb, chiziqni orientirlash, haqiqiy azimut, magnit myeridian, Rumb, Geodezik tayanch punkt, planli tayanch punkt,

1.1. Geodeziya va geodezik ishlarning rivojlanish tarixi bo‘yicha qisqacha ma’lumotlar.

Geodeziya — yerning shakli va o‘lchamlarini, yer yuzasidagi nuqtalar o‘rni va balandliklarini, bir —biriga nisbatan joylash holatlarini o‘lchash haqidagi fandır. Joyning haritasi, plani, yer kesimlari hamda, joyning matematik modellarini tuzishdagi geodezik usullarni yaratish, muhandislik inshootlarini qidiruv ishlarida, ularni barpo qilish va ulardan foydalanishdagi barcha geodezik ishlarini nazariyasi va amaliyoti ushbu fanning asosini tashkil qiladi.

Geodeziya — grekcha «Yer bo‘lish» degan so‘z bo‘lib, u juda qadim zamonda vujudga kelgan. Bizgacha kelgan ma’lumotlarga ko‘ra, yeramizdan bir necha asrlar ilgari Misrda kanalarini qurish maqsadida geodezik o‘lchash ishlari olib borilgan. Geodeziya va geometriya fani juda ko‘p vaqtlar bir-birini to‘ldirib rivojlanishg‘a sabab bo‘lgan. Miloddan 6 asr ilgari Pifagor yerni shar shakli deb aytgan. Miloddan 4 asr 2,5 asr Yerotosofen yerning radiusi uzunligini aniqlagan.

O‘rta Osiuoliklardan Horazmiy, Fargoniy kabi olimlar 827 yil halifa ma‘mur tomonidan uyushtirilgan ekspeditsiyada qatnashib yer o‘lchamlarini aniqlashgan. Shundan keyin HI asr boshida 1037 yili horazmlik Abu Rayhon Byeruniy Hindistonda ufq pasayish burchagini o‘lchash usulini qo‘llab, yer radiusini 6339,6 km ga teng deb topgan.

Harita tuzish bo‘yicha bajarilgan ishlar Petr 1 davrida (1672—1725 y) rivojlanadi. 1739 yilda Rossiya fanlar akademiyasining geografik departamenti tashkil qilinadi. 1957 yildan to 1763 yilgacha bu departamentga M.V. Lomonosov rahbarlik qiladi.

XVIII asr boshlarida topografik tasvir qilish rivojlanishi bilan birgalikda mahsus s‘emkalar, yo‘llarni, o‘rmonlarni s‘uomka qilish, gidrografik s‘emkalar ham rivojlandi.

Shu vaqtga kelib Azov, Kaspiy va keyinroq Orol dengizi qirg‘oqlarini, Amudaruo deltasini s‘uomka qilinadi.

Markaziy Osiyoda astronomik va geodezik ishlarni 1867 yil ochilgan Turkiston harbiy okrugi (TURKVO) tomonidan boshqarilib, planli ravishda olib boriladi.

Davr talabiga ko‘ra, geodeziya fani nazariy va amaliy jihatdan tez sur‘atlarda rivojlana boshladi. 1927 yildan ayerotasvir olish qo‘llanila boshlangan bo‘lsa, keyingi yillar quriq yerlarni o‘zlashtirilishi, katta-katta muhandislik inshootlarini qurilishi, yangi avgomont asboblari, uorug‘lik va lazyer geodezik asboblarni yasalishi geodezik asr tomonlama o‘shishiga va ish usullari o‘zgarishiga turtki bo‘ladi.

1.2. Geodeziya fani, uning tarmoqlari va halq xo‘jaligidagi ahamiyati..

Geodeziya quyidagi tarmoqlarga bo‘linadi:

1) *Oliy geodeziya* - Yerni shakli va kattaligi, gravitatsion maydonini, yer yuzasidagi nuqtalarni yagona koordinata sistemasida aniqlash bilan shug‘ullanadigan fan. Yerni shakli va kattaligini aniqlash, geodezik tayanch shaxobchalarini barpo qilish oliy geodeziya vazifasidir.

2) **Kosmik geodeziya** - yerni shaklini aniqlash, matyeriklardan dunyo okeanidagi orollarga nuqta koordinatalarini uzatish, yer yuzasida o'tkazilgan asosiy geodezik ishlarni yagona sistemasiga birlashtirish, matyeriklardagi geodezik tayanch shaxobchalarini tekshirish bilan shug'ullanadigan fandır.

3) **Selenogeodeziya** - oyni shakl va kattaligini, oy yuzasini kartada tuzishni o'rganadi.

4) **Planegeodeziya** - quyosh sistemasidagi planetalarni shakl va kattaligini xamda ularni yuzasining kartasini tuzish bilan shug'ullanadigan fandır.

5) **Radiogeodeziya** - radiolakatsiya metodi; yer yuzasidagi nuqtalarni koordinatalarini aniqlash, radiogeodezik asboblardan yordamida masofalarni o'lchashni o'rgatadi (svetodalmomyer, radiodalmomyer).

6) **Topografiya** - geodeziyani topografik plan olish nazariyasi va praktikasi bilan shug'ullanadigan tarmog'idir. Topografik karta va planlar tuzishda aviatsiya va fotografiyani keng ishlatilishi tufayli fotografiya va ayerofototopografiya soxalari vujudga keldi.

7) **Fototopografiya** - joyini yerda turib olingan suratlariga asoslanib topografik karta va planlar tuzish ishi bilan shug'ullanadigan tarmog'idir. Ayerofototopografiya esa joyini samolyotda o'rnatilgan maxsus asboblardan yordamida olingan suratlariga asoslanib karta va plan tuzish ishi bilan shug'ullanadi.

8) **Kartografiya** - yer yuzasini geografik kartalarini tuzish, o'rganish, foydalanish metodlarini o'rganadigan fan.

9) **Amaliy geodeziya** - xalq xo'jaligini turli tarmoqlarida geodezik ishlarni bajarish bilan shug'ullanadi. Amaliy geodeziya o'z navbatida injenyerlik geodeziya va qurilish geodeziya tarmoqlariga bo'linadi.

10) **Injenyerlik geodeziyasi** - turli injenyerlik qidiruv ishlarida, injenyerlik inshootlarini loyihalash va qurishda, ulardan foydalanishda geodezik ishlarni tashkil qilish va bajarish bilan shug'ullanadi.

11) **Marksheydyeriya** - geodeziyani shaxta, tonnel, metro va boshqa yer osti inshootlarini qurishda yer bag'rida o'lchash ishlarini bajarish bilan shug'ullanadigan soxasidir.

Yerni shakli va kattaligi haqidagi ma'lumotlar insoniyat uchun zarurdir. Bu ma'lumot ESY/ini o'chirish, televidenie, geologiya, radio, geografiya, geofizika uchun zarurdir.

Geodezik ishlar sanoat va grajdan qurilishi, yo'l qurilishida ham muhim ahamiyatga ega yangi shaxar va qishloqlarni bunyod etish, axoli yashaydigan punktlarini planlashtirish kabi muxim ishlarni geodezik ishlarsiz va topografik kartalarsiz amalga oshirib bo'lmaydi.

Har qanday bino, uy va yo'l qurilishining samaradorligi, qurilish narxi, ulardan foydalanish iqtisodiy ko'rsatkichlariga asosan geodezik ishlarning qanchalik aniq bajarilganligiga va geodezik ma'lumotlardan qanchalik to'g'ri foydalanilganligiga bog'liq.

Yangi shaxar va qishloqlarni barpo etish, aholi yashaydigan punktlarni planlashtirish, ularni obodonlashtirish va qayta qurish loyihalarini tuzish kabi muxim masalalarni geodezik ishlarsiz amalga oshirib bo'lmasligi turgan gap.


Geodezik o'lchash ishlari, topografik kartalar va ayerofotos'yomka matyeriallari mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini oshirish vositalaridan biridir.

Topografik karta va ayerosuratlardan taktik, strategik masalalarni hal qilishda, hamda boshqa harbiy ishlarda keng foydalaniladi.

Umuman, geodeziya mamlakatimiz xo'jaligini barcha tarmoqlarini rivojlantirishda va mudofaa qobiliyatini oshirishda juda katta axamiyatga ega.

1.3. Yerning shakli, o'lchamlari va uning geodeziyadagi o'rni

Ellipsoid yer shaklini va o'lchamlarini bilish yer yuzasini haritalarda tasvirlash va turli uchun zarur hisoblanadi. Planetamizni tinch holatdagi okean yuzasining suv sathi bilan fikran davom ettirishdan hosil bo'lgan yer shakliga geoid deyiladi. (1.3.1—rasm). Bunday uopiq yuza, sathiy yuza deyilib, u hamma nuqtasida shovun chizigiga pyerpendikulyar bo'ladi. Bu degan so'z yer tortish kuchi yo'nalishida bo'ladi. Geoid shakli, yer ichki katlamlarini



massasi bir tekisda tarqamaganligiuchu(Y)n, to'g'ri bir Geoid (sathiy yuza). Yer yuzasing ko'rinishi. geometrik shaklga ega emasligi tufayli, geodezik va kartografik hisoblarda geoid yuzasini eng yaqin matematik shakli-elipsoid deb qabul qilinadi.

1. Sathiy yuza (geoid);
2. Yerning fizik yuzasi.

Ba'zida ellipsoid yuzasini aylanishi - sferoid deb ham ataladi. Parallel chizigi esa ekvator deyiladi. Sferoidning katta va kichik yarim uqlari: a — radius ekvatori, v — yer yarim aylanish o'qi deb tushuniladi.

Yer sferoidning miqdorlari shu yarim o'qlar uzunligi bilan o'lchanadi. Sferoidning siqilishi quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$a = \frac{a-b}{a}$$

Yer sharining shaklini o'rganish sferoidni katta va kichik uqlarini miqdorini aniqlashdan iborat. 1.1— jadvalda Yer o'lchamlarini o'lchash natijasida turli yillarda olimlari geodezik o'lchash ishlari uchun.

| Olimlar | Mamlakat | yil | a, m | b, m | a |
|------------|----------|------|---------|----------|---------|
| Delyambr | Fransiya | 1800 | 6375653 | 6356564 | 1:334 |
| Klark | Angliya | 1880 | 6378248 | 63565515 | 1:293,5 |
| Krasovskiy | Rossiya | 1940 | 6378245 | 6356863 | 1:298,3 |

1946 yildan boshlab MDH davlatlari F.N. Krasovskiy ellipsoidning o'lchamlarini qabul qilgan.

Sun'iy yer yo'ldoshlari uchirilishi geodeziyaning rivojlanishida yangi davr ochdi. Sun'iy yo'ldoshlar harakatlarini kuzatish natijasida Yerning shakli o'lchamlariga birmuncha aniqliklar kiritilmoqda.

1.4. Geodeziyada qabul qilingan koordinatalar tizimi.

Yer yuzasida joylashg'an biror koordinata boshlang'ich deb hisoblangan nuqtaga nisbatan joylshg'an o'rnini ko'rsatuvchi miqdorlar shu nuqtaning koordinatalari deyiladi.

Yer yuzasidan hududlar rejani uoki haritasini chizishda nuqtalar joylashgan o'rnini, holatini ko'rsatishda to'g'ri burchakli, geodeziya va astronomiya koordinatalar tizimi qo'llaniladi.

To'g'ri burchakli koordinatalar tizimi. Bu tizim ikki mustaqil tizimga bo'linadi: to'g'ri burchakli fazoviy va to'g'ri burchakli yassi koordinatalar.

Fazoviy to'g'ri burchakli koordinata tizimi Yer elinsoyda sirtidagi barcha nuqtalar uchun yagona hisoblanib, yer elliksodini markazi (O) koordinataning boshlang'ich nuqtasi, yerning aylanish o'rni (KK) — qutbiy o'q (Z), bosh myeridianing ekvator tekisligidagi kesmasi — absissa (H) dir, bosh miridianaga pyerpindiqular kesma esa ordinata (U) uqi deb qabul qilindi. Mazkur tizim yerning sun'iy yo'ldoshlarini qurilishida, tayanch shahobchalar barpo qilishda foydalanib, muhandislik geodeziya ishlarda murakkabligi tufayli deyarli qo'llanilmaydi.


To'g'pu burchakli yassi koordinata

Tizimida nuqtalarni bir-biriga nisbatan tutgan o'rni o'zaro

pyerpendikulyar ikki chiziqning kesishgan nuqtaga nisbatan aniqlanadi. Geodeziyada vertiks chiziq — absissa (H), gorizont chiziq esa ordinata (U) deb qabul qilingan (1.4.1 — rasm)

Bu tizimda boshlang'ich nuqta bosh myeridian (vertikal chiziq) va ekvatorni (gorizont chiziq) kesishgan nuqtasida joylashgan, bo'lib, ular tekislikni tog'ri choraklarga bo'ladi. Choraklar soat millari yo'nalishida, shimoldan sharq, janub va g'arbga tomon hisoblanadi.

To'g'ri burchakli koordinata tizimida biror nuqta koordinatasi aniqlash uchun shu nuqtadan koordinata o'qlariga pyerpendiqikulyar tushiriladi. 1.4.1 — rasmga ko'ra A nuqtaning koordinatalari — H_A va U_A ga teng



1.4.1-rasm

Ayrim hollarda koordinata boshi qilib ihtiuriy bir nuqta qabul qilinsa, **bunda tog'ri burchakli koordinata mahalliy koordinata tizimi** deb yuritiladi.

Geodezik koordinatalar tizimida biror nuqtada o'tkazilgan myeridian shu nuqtaning geodezik uzunligi (L) paralel esa geodezik kenglikni bildiradi.

Yer elipsoidining kichik o'qi orqali bo'ylamaga o'tkazilgan kesma **matyerial tekislik**, bu tekislikning elipsoid yuza bilan kesishidan hosil bo'lgan chiziq esa **geodezik myeridian** deyiladi. Yer ellipsoidining biror nuqtasidan

uning o'qiga pyerpendiqikulyar o'tkazilgan kesma **parallel tekislik**, bu tekislikning ellipsoid yuzasi bilan

kesishidan hosil bo'lgan chiziq **parallel** deb ataladi. Yer ellipsoidi markazidan o'tkazilgan parallel kesma-ekvator tekisligi, uning ellipsoid yuzasi bilan kesishishidan hosil bo'lgan chiziq esa **ekvator** deyiladi. Yer ellipsoididagi geodezik koordinatasining geometrik mazmunida keltirilgan.

Biror bir M —nuqtani geodezik kengligi shu nuqtaning normal chizig'i (PTN) bilan ekvator tekisligi orasidagi bo'rgandan iboratdir. Geodezik kenglik ekvator dan qutblarga tombi 0 da 90° gacha hisoblanadi. Bunda shimoliy kenglikning ishorasi musbat (+), janubiy kenglik manfiy (—) bo'ladi.

Geodezik uzunlik (L) geodezik myeridiani bilan bosh myeridian tekisligi orasidagi burchakdan iborat bo'ladi.

Bosh myeridian qilib Grinvich (London shahri uonida) obsyervatoriyasi zamining markazidan o'tgan myeridian qabul qilingan. Geodezik uzunlik Grinvich myeridianidan boshlab Farbga va sharqqa tombi 0 dan 180° gacha o'lchanadi. Nuqta Grinvich myeridianidan g'arbda joylashgan bo'lsa, uning uzunligini g'arbiy (musbat) sharqda bo'lsa sharqiy (manfiy) deb qabul qilinadi.

Astronomik koordinatalarda asosiy yuza qilib geoid, koordinata chiziqlari qilib astronomik myeridian va parallellar qabul qilingan. Biror nuqtaning astronomik myeridiani deganda, Yerning aylanish o'qiga parallel qilib o'tkazilgan tekislikning mazkur nuqtadan tushirilgan shavun chizig'i yo'nalishida Yer yuzasi bilan kesishidan hosil bo'lgan chiziq tushiriladi.

Yer yuzadagi biror nuqtaning astropolik myeridiani bilan boshlang'ich deb qabul qilingan Grinvich myeridiani tekisliklari orasida hosil bo'lgan burchak shu nuqtaning astronomik uzunligi deyilib, λ bilan, shu nuqtadan tushirilgan shovun chizigi bilan ekvator tekisligi orasida hosil bo'lgan burchak shu nuqtaning astronomik kengligi bo'lib φ bilan belgilanadi.


Geodezik va astronomik koordinatalar tizimi bitta umumiy nom: **geografik koordinata** deb yuritiladi.

1.5. Chiziqnlarni orientirlash va orientirlash burchaklari.

Joydagi biror chiziqning boshlang'ich deb qabul qilingan chiziqqa nisbatan yo'nalishini aniqlash - **shu chiziqni orientirlash** deyiladi (1.5.1 — rasm).

Har qanday chiziqning yo'nalishi, shu chiziq bilan boshlang'ich yo'nalish deb qabul qilingan chiziq orasida hosil bo'lgan burchak yordamida aniqlanadi.


Bu burchak orientirlash burchagi deb ataladi. Masalan: OX - boshlang'ich yo'nalish. OS chizig'ining OX ga nisbatan yo'nalishi α orientirlash burchagi yordamida aniqlanadi.




rasm 1.5.1.

Joydagi biror chiziq yoʻnalishini aniqlashda boshlangʻich yoʻnalish deb *geografik myeridian* qabul qilinsa, ular orasidagi orientirlash burchagiga - *haqiqiy azimut*, *magnit myeridian* qabul qilinsa - *magnit azimut* oʻq yoki unga parallel boʻlgan chiziq qabul qilinsadireksionburchak deyiladi(1.5.2.- rasm).

Haqiqiy azimut, magnit azimut va direksion burchak boshlangʻich yoʻnalishning shimol tomonidan boshlab soat strelkasi yoʻnalishi boʻyicha 0° dan 360° gacha oʻlchanadi.



1.5.2-rasm



1.5.3-rasm

Haqiqiy azimut bilan magnit azimut bir-biridan δ ga farq qiladi. - Bu burchak *magnit strelkasining ogʻish* burchagi deyiladi(1.5.3– rasm).

Haqiqiy azimut bilan direksion burchak bir-biridan γ burchakka farq qiladi. Bu burchak - *myeridianlar yaqinlashish burchagi* deyiladi (1.5.3– rasm).

Rumb - boshlangʻich yoʻnalishning shimoliy va janubiy tomoni bilan, chiziq yoʻnalishi orasidagi burchakdir. Rumb 0° dan 90° gacha oʻzgaradi.

Rumb burchakni qiymatini oldiga koordinata choragini nomi yoziladi. SHSHq, SHGʻ, JSHk, JGʻ.

Yer yuzidagi har bir chiziqning toʻgʻri va teskari orientirlash burchagi boʻladi.

Agar A va V nuqtalardan oʻq myeridianiga parallel chiziqlar oʻtkazsak $+\gamma$ va $-\gamma$ burchaklar hosil boʻladi. Bu burchaklar myeridianlar yaqinlashish burchaklari boʻladi.

Geografik myeridian bilan oʻq myeridianiga parallel boʻlgan chiziq orasidagi burchakka myeridianlar yaqinlashish burchagi deyiladi.

$$\gamma = \Delta\lambda \times \sin \varphi$$


$\Delta\lambda$ - o'q myeridian bilan byerilgan nuqta myeridiani geografik uzunliklarining ayirmasi.

φ - byerilgan nuqtaning geografik kengligi.

Absissa o'qi - myeridianlar sharq tomondan o'tsa - myeridianlar yaqinlashishi burchagi sharqiy bo'ladi, ishorasi (+) bo'ladi;

Absisa o'qi myeridianning g'arb tomonidan o'tsa - g'arbiy bo'ladi va ishorasi (-) bo'ladi.

Haqiqiy azimut bilan direksion burchak orasidagi munosabat. Yo'nalishning haqiqiy azimuti va shu joydagi myeridianlar yaqinlashish burchagi ma'lum bo'lganda uning direksion burchagini, direksion burchagi va myeridianlar yaqinlashish burchagi ma'lum bo'lganda esa, haqiqiy azimutni aniqlash qo'ydagi formulalar bilan aniqlanadi (1.5.4-rasm). $\alpha = A - \gamma_{shq}$. va $A = \alpha + \gamma_{shq}$.



1.5.4-rasm

Yo'nalishning direksion burchagi ma'lum bo'lganda rumbini, rumbi ma'lum bo'lganda esa direksion burchagini topish mumkin. Masalan 1.5.4-rasm da direksion burchak bilan rumbning bir-biriga munosabati byerilgan; yo'nalishlarning direksion burchaklari ma'lum bo'lganda bu shakldan foydalanib rumbni quyidagi formulalar yordamida aniqlash mumkin

Azimutlar va rumblarni o'zaro bog'lanishi

| Choraklar | Burchaklar chegaralari | Bog'lanish tenglamalari | Romb nomi |
|-----------|------------------------|-------------------------|-----------|
| I | 0°-90° | $r_1=A$ | SHshq |
| II | 90°-180° | $r_2=180-A$ | JSHq |
| III | 180°-270° | $r_3=A-180$ | JG' |
| IV | 270°-360° | $r_4=360-A$ | SHG' |

1.6. Davlat geodezik to'rlari.

Geodezik ishlar ikki muhim qismdan – Yer sirtida vaziyatlari aniqlangan tayanch nuqtalar sistemasini yaratish va bu nuqtalar sistemasini asosida s'yomkalarini bajarishdan iborat. Tayanch nuqtalar sistemasini katta hududda bajariladigan s'yomkalarining hamma qismlarida oldindan o'rnatilgan aniqlikni ta'minlashi zarur. SHu sababli ular uchun umumiy bo'lgan yagona koordinatalar va balandliklar sistemasida aniqlangan, joyda mahkamlangan yer sirtining nuqtalari tizimi – geodezik tarmoq yaratiladi.

Xududiy xususiyatlariga ko'ra ular butun yer sharini qoplaydigan – global geodezik tarmoqlarga, har bir mamlakat hududi doirasida mazkur davlatda qabul qilingan yagona koordinatalar va balandliklar – referent sistemasidagi milliy (davlat) geodezik tarmoqlariga,

topografik s'ymkalarga asos uchun mo'ljallangan zichlashtirish va har xil masalalarni echish uchun foydalaniladigan lokal uchastkalarda barpo etiladigan mahalliy geodezik tarmoqlarga bo'linadi.

Geometrik mohiyati bo'yicha planli, balandlik va fazoviy geodezik tarmoqlarga bo'linadi.

Geodezik tayanch shaxobchalarining turlari.

Joyda o'zni uzoq vaqt saqlanadigan qilib maxsus qurilma yoki mustahkam qoziq bilan belgilangan va planli koordinatasi yoki absolyut balandligi aniqlangan nuqtaga *geodezik tayanch punkt* deyiladi.

Bunday nuqtalar yig'indisi *geodezik tayanch shaxobchalarni* tashkil etadi. Planli koordinatasi ma'lum bo'lgan tayanch punktga, *planli tayanch punkt*, absolyut balandligi ma'lum bo'lgan tayanch punktga esa *balandlik tayanch punkt* deyiladi. SHunga yarasha geodezik tayanch shaxobchalari planli va balandlik tayanch shaxobchalarga bo'lindi.

Geodezik tayanch shaxobchalari, davlat geodezik tayanch shaxobchalari, maxalliy geodezik tayanch shaxobchalari va plan olish tayanch shaxobchalariga bo'lindi. Davlat

geodezik tayanch shaxobchalari maxsus programma asosida barpo qilinadi va barcha masshtabdagi topografik planlarni olishda tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz xalq xo'jaligi va mudofaasiga turli ilmiy va texnikaga doir masalalarni echishda xam davlat geodezik tayanch shaxobchalariga asoslanadi.

Davlat geodezik tayanch shaxobchalari mamlakatimizning istagan joyida bir-biriga bog'lanmagan holda bir vaqtda yoki turli vaqtda plan olishga va geodezik o'lchash ishlarini bajarishga, bu ishlarda ro'y byeradigan tasodifiy xatolar ta'sirini kamaytirishga, mazkur ishlarning qay darajada aniq bajarilganligini tekshirishga, shuningdek barcha geodezik o'lchash ishlarini yagona koordinata sistemasiga birlashtirishga imkon byeradi.

Maxalliy geodezik tayanch shaxobchalari 1:500 - 1:5000 masshtabli topografik planlar olish uchun, hamda qurilish maydonlarida bajariladigan geodezik ishlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

5.1.4. Plan olish shaxobchalari barcha masshtabda planlar olish uchun bevosita asos bo'lib hisoblanadi. Plan olish shaxobchalarini hosil qilish uchun teodolit yo'li, menzula yo'li, geometrik shaxobcha, to'g'ri va teskari kesiltirish usullaridan foydalaniladi.

Geodezik tayanch shaxobchalarini barpo qilish metodlari.

Geodezik tayanch shaxobchalarini barpo qilishni bir necha xil metodi bor. *Astronomik metod*, *geodezik metod*, *radiogeodezik metod* - shular jumlasidandir. Hozirgi vaqtda asosan *geodezik metod* qo'llanilmoqda. Geodezik metodning o'zi - triangulyasiya, poligonometriya va trilatyeratsiya degan turlarga bo'linadi.

Punktarning geografik koordinatlarini *astronomik metodda* bir-biriga bog'lanmay, alohida-aloxida aniqlanadi. Lyokin astronomik metodda punktlar koordinatalarining aniqlanish darajasi hozirgi vaqtda geodezik tayanch shaxobchalariga bo'lgan talabni qondirmaydi, shuning uchun astronomik metod katta aniqlik talab qilinmaydigan vaqtda qo'llaniladi.

Keyingi yillarda 1:50000, 1:100000, 1:25000 masshtabli ayerofototopografik plan olish uchun geodezik tayanch shaxobchalari barpo qilishda *radiogeodezik metod* qo'llaniladi. Radiogeodezik metod tyerritoriyani samolyotdan turib suratga olish vaqtida samoletning o'rnini aniqlashga asoslangan edi.

Qit'a va orollardagi geodezik tayanch shaxobchalarini bir-biriga bog'lashda *kosmik geodezik usuldan* xam foydalanilmoqda.

Geodezik tayanch shaxobchalarini barpo qilishda joyning sharoitiga qarab, iqtisodiy jixatdan eng yaxshi samara byeradigan metod qo'llaniladi.

Hozirgi planli geodezik tayanch shaxobchalari asosan triangulyasiya va poligonometriya metodlarida hosil qilinmoqda.

Magistral poligonometriya

Magistral poligonometriya koordinatalari ma'lum bo'lgan 2 tayanch punkt oraligida o'tkazilgan poligondan iborat, bunda burilish nuqtalar 1,2,3...larning koordinatalarini aniqlash uchun tutashtiruvchi chiziqlarning uzunligi $d_1 d_2 \dots$ larning burilish burchaklari $\beta_1 \beta_2 \dots$ hamda $\psi_1 \psi_2$ burchaklar o'lchanadi.

Poligonometriya punktlarining koordinatalarini hisoblashda oxirgi nuqta (S) ning ma'lum koordinatalari kontrol bo'lib xizmat qiladi.


Panli va balandlik davlat geodezik tarmog'i va zichlashtirish geodezik tarmog'i punktlari uzoq muddatli bo'lib, ular holatining o'zgarishini ta'minlaydigan belgilar bilan yerda mahkamlanadi va belgilanadi.

Yerdagi geodezik belgilar konstruksiyasiga qarab turlarga, piramidalarga, oddiy va murakkab signallarga bo'linadi.

Turlar— bu qoyaga mahkamlangan marka ustida quriladi, toshdan, gishtdan, be-tondan, temir betondan yasalgan ustunlar bo'lib, ularni tog'li yerlarda o'rnatiladi. (1.6.1. -rasm, a). Qarash moslamalari tur ustida yoki turdagi markada o'rnatiladi. Asosiy markaning ustida ikkinchi va uchinchi markalar joylashtiriladi.

Piramidalar yondosh punktlarga yerdan ko'rinishi mumkin bo'lgan ochiq joylarda quriladi. Ular uch va to'rt qirrali, oddiy shtativli va vexali bo'ladi. Piramidalar balandligi 5 m dan 8 m gacha. Piramidalar va ularning o'lchamlari 1.6.1.b -rasmda kursatilgan.

Oddiy signallar ikki piramidali : asbob o'rnatish uchun xizmat qiladigan ichki va kuzatuvchi uchun tashqi platformadan iborat. Oddiy signallar 4 – 10 m balandlikka ega. Tashqi piramidalar asosan to'rt qirrali, ichkarilari uch qirrali (1.6.1.v-rasmda).





1.6.1-rasm. Geodezik belgilar: a – turlar; b – oddiy piramida; v – tashqi piramida; g – murakkab signal.

Murakkab signallar 10 m dan 40 m gacha balandlikka ega bo'lib, murakkab uch qirrali va turt qirrali ko'rinishda quriladi; ichki piramida tashqisi ustunlariga tayanadi, ya'ni ular yagona konstruksiyani ifodalaydi (1.6.1..g - rasm). Yerosti belgi (markaz)lari, turlari ishlar rayoni fizik-geografik sharoitlariga, grunt tarkibiga va tuproqning muzlash chukurligiga karab o'rnatiladi.

Fan va texnikaning oxirgi 10 yillikda tez rivojlanishi natijasida koordinatalar va nisbiy balandlikni anqlashning yangi usuli sun'iy yo'ldoshlar tizimi GPS priemniklar vujudga keldi. Ananaviy geodezistlar qo'llab kelgan usuldan o'laroq GPS da ishlash qulayroq. GPS -priborlarni xalq xo'jaligidagi o'rni nimadan iboraligini yuqorida takidlab o'tdik. Xozir zomonaviy 2 ta sun'iy yo'ldoshlar sestemasi mavjud. Rossiya davlatining GLONASS (Globalnaya Navigatsionnaya Sun'iy yuldoshoviy sistema) va AQSH ning NAVSTAR GPS sistemasi (Navigation System with Time And Ragind Global Positioning Sestem) - navigatsionnaya sestema opredeleniya rasstoyaniy i vremeni globalnaya sistema pozitsionirovaniya.

GPS sistemasining tuzilish segmentlari GPS va GLANASS sistemalari 3-ta segmentga bo'linadi.

a) Kosmik segment



Sunniy yulduzlar majmuasi. Yerdan yuborilgan har bir yo'ldoshda quyosh batareyasi. Dvigatel. YUqori aniqlikdagi atom chastotali soat, Etalonlashtirilgan radiosignallarni qabul qiluvchi va yuboruvchi aparat, bort kompyuterlari. Sistema kosmik aparatlar soni 24 sun'iy yo'ldoshdan iborat. SHundan 3 tasi zaxira. 4 tadan 60 gradusli 6 ta orbita tekisligida joylashgan. Ekvatorga nisbatan orbita tekisligi 55 gradusga ega. Sun'iy yo'ldoshning o'rtacha joylashuv balandligi 20180 km yerdan va yer markazidan 26600 km sun'iy yo'ldoshlarning bunday joylashuvi yerning istalgan nuqtasida 4 sun'iy yulduz bilan aloqa qilish imkoniyatiga ega. Sun'iy yo'ldoshlarning to'liq aylanish sikli 11 soat 57 minut 58.3 sek. vaqtni tashkil qiladi. SHuning uchun sun'iy yo'ldosh bir kun oldin turgan joyidan 4 min. oldin keladi.

Nazorat savollari

1. Muhandislik geodeziyasi fani vazifasi va mazmunini so'zlash.
2. Geodeziyani rivojlanish, tarihi haqida nimalar bilasiz?
3. Yer shakli va o'lchamlarini kursating.
4. Geoid va yerning fizik yuzasini chizib ko'rsating.
5. Koordinata nima?
6. Geodezik va astronomik koordinatalar tizimi haqida nimalar bilasiz?
7. Azimut, rumb, direksion burchak qiymat o'zgarishi

2—Ma'ruza

Mavzu: Topografik xarita, plan va masshtablar. Joyning sonli modeli

Reja

1. Topografik xarita, plan va masshtablar haqida umumiy tushuncha.
2. Topografik xarita mazmuni. Shartli belgilar.
3. Topografik xarita nomenklaturasi.
4. Masshtablar. Topografik xarita va planlar masshtablari.
5. Rel'efni tasvirlashda gorizontallar usuli va uni qo'llash.
6. Topografik xaritada avtomobil yo'llarini loyihalashdagi geodezik masalalar echish. Joyning sonli modeli.

Tayanch so'zlar va iboralar: Xarita, plan joyni kesimi masshtab, masshtab aniqligi, sonli masshtab, chiziqli va ko'ndalang masshtab karta nomenklatura, joy rel'efi kesim balandligi gorizontalar chiziqi, qiyalik, topografik karta mazmuni shartli belgilar.

2.1. Topografik xarita, plan va masshtablar haqida umumiy tushuncha

Joyning tasvirini qog'ozda qisqartirilib ko'rsatilgan chizmasi karta yoki plan deyiladi. Kartada, yerning sferik yuzasini katta hududlari tasvirlanganligi, tekislikda uni aniq tasvirini

ko'rsatishga ega emasligi sababli, karta shu joyning birmuncha o'zgarilgan tasvirini ko'rsatadi. Bunda turli kartografik proeksiyalardan foydalaniladi. Shunday qilib, yer yuzasini umumlashtirilib, kichraytirilgan holda, kartografik proeksiyalardan foydalanib ko'rsatilgan chizmaga qarata deyiladi.

Yer yuzining yassi deb qabul qilingan bo'lagining tekis sathiy yuzaga tushirilgan gorizontal proeksiyasining qog'ozdagi kichraytirilgan tasviri plan deb aytiladi.—v Plan bilan karata bir — biridan birmuncha farq qiladi. Ular orasidagi asosiy farq, quyidagilardan iborat:

➤ yer yuzidagi tafsilotlarning plandagi quofasi joyidagiga o'hshab tasvirlanadi va planning barcha qismida masshtab bir hil bo'ladi;

➤ planda joydagi chiziqlarning o'zunligi konturlarning maydoni, yo'nalishlar orasidagi burchaklar tug'ri tasvirlansa, kareda esa ularning tasvirida ma'lum hilma —hil kursatiladi;

➤ karata ma'lum kartografik proeksiya uoki mintaka tizimida tug'ri burchakli koordinatada to'ziladi;

➤ plan ko'pincha shartli uoki mahalliy tug'ri burchakli koordinata tizimida byeriladi. Joyning bir yo'nalish bo'yicha tik kesimini qog'ozdagi kichraytirilgan qirqimi *kesim* deyiladi. Kesimlar buylama va ko'p kundalang bo'ladi.

Harita proeksiyani plan uoki kesimda gorizontal uoki vertikal massofani tasvirdan kiskartirish darajasi **masshtab** deb, yuritilib, masshtablar soniy uoki yerodik tarzida kursatiladi. Soniy masshtab 1/1000 uoki 1:1000 shaklda kursatilib, 1 sm plandagi o'zunlik joyidagi 1000 sm uoki 10 m tug'ri kelishni kursatadi. Ikki soniy, masshtabni takoslaganda, kaysi masshtabni mahraji katta bo'lsa, u mayda va aksincha mahraji kichik bo'lgan bo'lsa, yirik hisoblanadi.

Muhandislik inshootlarni loyihalashda 1:500—1:25000 masshtabli plan va koordinatalardan foydalaniladi.

Chiziqli inshootlar uchun buylama kesim gorizontal masofa masshtabi 1:5000 tik masofa masshtabi esa un marta kichik 1:500 bo'ladi.

Grafik masshtablar, chiziqli va kundalang masshtablar kurinishida bo'lib aniqligi katta bo'lmagan o'zunliklarni qog'ozga tushirishda uoki o'lchashda foydalanilsa, kundalang masshtab muhandislik ishlarida ishlatiladi.

Chiziqli masshtab asosi 1 sm li kesimlardan belgilanib, birinchi ran bo'lak 10 ga teng bo'lakka bo'linsa, kundalang masshtab asosi 2 sm dan ajratilib birinchi chap bo'lak 10 ga parallel chiziqlar dan va kichik bo'laklar uopiq kiya chiziqlarni tutashtirilgan shaklda bo'ladi.

Chiziqli masshtab da 86,4 m uzunlik 1:2000 masshtabda ikkita H oraliqda ko'rsatilgan.

Koordinatadagi byerilgan masshtabdagi, joyidagi chiziqni gorizontal proeksiyadan 0,1 mm ga mos keluvchi o'zunlik **mashtab aniqligi** deb yuritiladi. Shunga ko'ra, 1:2000 masshtab aniqlik 0,2 m, 1:5000 —0,5m, 1:10000—1m teng bo'ladi.

2.2. Topografik xarita mazmuni va shartli belgilar.

Topografik kartalarda joy tafsilotlari maxsus shartli belgilar bilan quyidagi guruxlarga bo'linib ko'rsatiladi:

1.Relef.

2.Gidrografiya.

3.O'simlik va tuproq grunt qoplami.

4.Axoli yashaydigan punktlar, sanoat, qishloq xo'jalik korxonolari va sotsial-iqtisodiy ob'ektlar.

5.Chegaralar.

6.Orientir bo'la oladigan ayrim ob'ektlar

Topografik kartalarda joy rel'efi gorizontallar bilan, qolgan barcha tafsilotlar shartli belgilar bilan tasvirlanadi.

Topografik shartli belgilar xususiyatlari xamda vazifalariga qarab:

1. Masshtabli (konturli)

2. Masshtabsiz

3. Tushuntiruvchi shartli belgilarga bo'linadi.

1. **Masshtabli** yoki konturli shartli belgilar bilan karta masshtabida konturini ko'rsatish mumkin bo'lgan tafsilotlar, masalan, o'rmon, botqoqlik, poliz, bog', ko'l va boshqalar tasvirlanadi. Masshtabli shartli belgilar bilan tasvirlangan tafsilotlarning uzunligi, kengligi, maydonini aniqlash mumkin. Konturli shartli belgilar bilan tasvirlangan tafsilotlarni bir-biridan farq qilish uchun, har bir kontur ichiga shu tafsilotlarni shartli belgisi byeriladi yoki konturlar turli rangga bo'yaladi. Masalan, tokzorga tokning shartli belgisi chizib qo'yiladi, qamishzor konturining ichiga qamishning shartli belgisi chizib qo'yiladi, o'rmon yashil rangga, ko'l ko'k rangga bo'yaladi va hakoza. Lekin, kontur ichida byerilgan shartli belgi shu belgi bilan tasvirlangan tafsilotning o'rnini va miqdorini bildirmaydi. Masalan, bog' konturi ichida byerilgan doirachalar shu bog'dagi daraxtlarning o'rnini va ularning sonini bildirmaydi.

2. Karta masshtabida ko'rsatib bo'lmaydigan kichik ob'ektlar, masalan, yakka daraxt, buloq, quduq, ko'prik va boshqalar **masshtabsiz shartli belgilar** bilan tasvirlanadi. Bunday tafsilotlar karta masshtabida nuqta bilan ko'rsatiladi, nuqta tafsilot o'rnini, shartli belgi esa uning qanday tafsilot ekanligini ifodalaydi. Kartada bunday tafsilotlar orasidagi masofani o'lchashda va koordinatalarini aniqlashda tafsilot o'rni sifatida shu nuqta olinadi. Yo'llar, soylar, ya'ni cho'zilib ketgan uzun chiziqlar tarzidagi tafsilotlar ham masshtabsiz shartli belgilar bilan tasvirlanadi. Ularning faqat uzunligi karta masshtabida ko'rsatilib, kengligi masshtabsiz byeriladi.

3. Konturli va masshtabsiz shartli belgilar bilan tasvirlangan tafsilotlarni qo'shimcha ravishda xarakterlash va ularning turini ko'rsatish uchun **tushuntiruvchi shartli belgilar** ishlatiladi.

2.3. Topografik harita va uning nomenklaturasi

Topografik kartalarni varaqlarga bo'lish, hamda bu varaqlarni belgilash, ya'ni ularga nom byerish sistemasi **nomenklatura** deyiladi.

Topografik kartalarining nomenklaturasi 1:1000000 masshtabli karta nomenklaturasiga asoslangan. 1:1000000 masshtabli karta varag'ining o'lchami myeridian bo'yicha 4° va parallel bo'yicha 6° ga teng. Kartaning varaqlariga nom byerish uchun ekvator dan qutblarga tomon 4° dan **parallel** o'tkazilib - qator, 180° li myeridiandan boshlab 6° dan **myeridianlar** o'tkazilib - **kolonnalar** hosil qilinadi.

Qatorlar ekvator dan qutblarga tomon lotin alfavitining bosh xarflari (A dan Z gacha), kolonnalar esa 180° li myeridiandan boshlab 1 dan 60 gacha arab raqamlari bilan belgilanadi. SHunda 1:1000000 masshtabli karta har bir varag'ining nomenklaturasi qatorni belgilovchi harf va kolonna nomyerini ko'rsatuvchi raqamdan iborat bo'ladi. Masalan, Toshkent shaxri joylashgan varaq (trapetsiya) ning nomenklaturasi K-42 bo'ladi (2.3.1-rasm).

1:500000 masshtabi karta varag'ining nomenklaturasini keltirib chiqarish uchun 1:1000000 masshtabli karta varag'ini 4 teng bo'lakka bo'lamiz.

1:200000 masshtabli karta nomenklaturasini keltirib chiqarish uchun 36 teng bo'lakka bo'lib I - XXXVI gacha belgilab olamiz.

1:300000 masshtabli karta varag'ining nomenklaturasini keltirib chiqarish uchun 1:1000000 masshtabli karta varag'ini 9 ta teng bo'lakka bo'lamiz I - IX gacha belgilab olamiz.


1:100000 masshtabli karta varag'ini nomenklaturasini keltirib chiqarish uchun, 1:1000000 masshtabli karta varag'ini 144 teng bo'lakka bo'lamiz va 1-144 belgilab olamiz. 1:100000 masshtabli topografik kartaning nomenklaturasi barcha yirik mashtabli topografik kartalar va planlarning nomenklaturasi uchun asos qilib olingan.

1:50000 masshtabli karta varag'ini nomenklaturasini keltirib chiqarish uchun 1:100000 masshtabli karta varag'ini 4 ta teng bo'lakka bo'lamiz; (A, B, V, G) - K-42-102-B (2.3.2-rasm).

1:25000 masshtabli karta varag'ini nomenklaturasini keltirib chiqarish uchun 1:50000 masshtabli karta varag'ini 4 ta teng bo'lakka bo'lamiz; (a, b, v, g) - K-42-102-B-b (2.3.2-rasm).

1:10000 masshtabli karta varag'ini nomenklaturasini keltirib chiqarish uchun 1:25000 masshtabli karta varag'ini 4 ta teng bo'lakka bo'lamiz (1, 2, 3, 4) - K-42-102-B-b-3 (2.3.2-rasm).


1:5000 va 1:2000 nomenklaturasi 1:100000 - 256 ta teng bo'lakka bo'lsak - 1:5000 kelib chiqadi. (K-42-102 (132)) (2.3.3-rasm);



2.3.1-rasm

| Karta masshtabi | Kenglik | Uzunlik | Nomenklatura |
|-----------------|---------|----------|-----------------|
| 1:1000000 | 4° | 6° | K-42 |
| 1:500000 | 2° | 3° | K-42-G |
| 1:300000 | 1°20' | 2° | K-42-IX |
| 1:200000 | 40' | 1° | K-42-XX |
| 1:100000 | 20' | 30' | K-42-102 |
| 1:50000 | 10' | 15' | K-42-102-B |
| 1:25000 | 5' | 1'30" | K-42-102-V-g |
| 1:10000 | 2'30" | 3'45" | K-42-102-V-a-3 |
| 1:5000 | 1'15" | 1'52,5" | K-42-102(132) |
| 1:2000 | 0'25" | 0'337,5" | K-42-102(132-d) |

1:1000000 masshtabli kartaning varaqlarga bo'linishi keltirilgan.



2.4. Masshtablar. Topografik xarita va planlar masshtablari.

Topografik planlar tuzish uchun asosan 1:500; 1:1000; 1:2000; 1:5000 - masshtablar qabul qilingan.

Topografik kartalar tuzish uchun 1:10000; 1:25000; 1:50000; 1:100000; 1:200000; 1:300000; 1:500000 masshtablar qabul qilingan. Har bir topografik plan va kartaning masshtabi, uning ramkasi ostida byeriladi: sonli, soʻzli va chiziqli.


Masshtab - yer yuzidagi masofalar gorizontol proeksiyalarining kichraytirilgan darajasidir. Raqamlar bilan **sonli masshtab** ifodalanadi va kasr tarzida yoziladi 1:M - m - masshtabning kichraytirish darajasi (M 1:100; 1:5000).

Sonli masshtab soʻz bilan ifodalansa - **soʻzli masshtab** deb ataladi (1sm da 1m; 1sm da 1 km...).


Masshtab grafik shaklda ifodalansa - **chiziqli masshtab** deyiladi. Chiziqli masshtab bitta chiziqdan yoki ikki parallel chiziqdan iborat bo‘lib, chiziqlar ma’lum uzunlikdagi kesmalarga bo‘linadi; kesma **masshtab asosi** deyiladi (1 yoki 2 sm). Kesmalar ustiga uning yuzidagi uzunligi yoziladi.

Chiziqli masshtabning chap tomonidagi birinchi kesma teng 10 bo‘lakka bo‘linadi - 1 bo‘lagi - **grafik aniqligi** deyiladi (2.4.1- rasm).

Kartadan o‘lchangan chiziqlarning joydagi uzunligini aniqroq o‘lchashda **ko‘ndalang masshtabdan** foydalaniladi (2.4.2 - rasm).



2.4.1- rasm



2.4.2- rasm


| Karta nomi | Sonli masshtab | So‘zli masshtab | Masshtab aniqligi |
|-----------------|----------------|-----------------|-------------------|
| Besh yuzli | 1 : 500 | 1 sm da 5 m | 0,05 |
| Mingli | 1 : 1 000 | 1 sm da 10 m | 0,1 |
| Ikki mingli | 1 : 2 000 | 1 sm da 20 m | 0,2 |
| Besh mingli | 1 : 5 000 | 1 sm da 50 m | 0,5 |
| O‘n mingli | 1 : 10 000 | 1 sm da 100 m | 1 |
| Yigirma mingli | 1 : 25 000 | 1 sm da 250 m | 2,5 |
| Ellik mingli | 1 : 50 000 | 1 sm da 500 m | 5 |
| YUz mingli | 1 : 100 000 | 1 sm da 1 km | 10 |
| Ikki yuz mingli | 1 : 200 000 | 1 sm da 2 km | 20 |
| Uch yuz mingli | 1 : 300 000 | 1 sm da 3 km | 30 |
| Besh yuz mingli | 1 : 500 000 | 1 sm da 5 km | 50 |
| Millionli | 1 : 1 000 000 | 1 sm da 10 km | 100 |

2.5. Rel’efni tasvirlashda gorizontallar usuli va uni qo‘llash.

Relief deb, joyni notekisliklar ko‘rinishiga aytiladi. Haritada relief gorizontallar bilan ko‘rsatiladi. Gorizontalar deb, bir balandliklarni birlashtiruvchi egri uopiq chiziqqa aytiladi.

Ikki gorizontalar orasidagi farq kesim balandlik (h) deyiladi. Kesimlar bir hil balandlikda masshtab va joy relefiga ko‘ra 1, 2, 5, 10, 20 m va h.o. o‘tkaziladi. Kesim balandlik qancha kichik bo‘lsa, joy relefi shuncha aniq ko‘rsatiladi.

Reliefni quyidagi asosiy formalarga ajratiladi.



2.5.1-rasm

1. Yon —bag'ir (ploskiy sklon) yassi qiyalik;
2. Balandlik uoki TOG';
3. Katlavan — bu tog'arasimon chuqurlik;
4. Lohina (soylik)
5. Hrebet (burtib chikkan) chuqurlik;
6. Sedlovina (egarsimon joy)—turtib chiqqan ikki tepalik. Odatda bu tepaliklar orasi davon deyiladi.

2.6. Topografik xaritada avtomobil yo'llarini loyihalashdagi geodezik masalalar echish.

Joyning sonli modeli.

Plan gorizontallari buyicha joy relefini baholash va injenyerlik inshootlarini loyihalash bilan bog'liq, bo'lgan ko'pgina masalalarni echish mumkin. Bunday masalalarga gorizontallar ustida va ular orasida yotgan nuk,- talarning balandliklarini aniqlash, joy chiziqlari nishabliklari va qiyaliklarini aniqlash, byerilgan chiziq yunalishi bo'yicha profil tuzish, byerilgan nishablikdagi chiziqni o'tkazish, yer tekislash uchun qiya sirtini loyihalash, jismlar hajmlarini hisoblash kabi echimlari kuyidagi misollarda keltirilgan masalalar kiradi.

Gorizantal belgisini byerilgan nuqtaning balandligi va ma'lum relef kesimi buyicha aniqlash.

Bu masalani echishda gorizantal belgisi relef kesimi balandligiga karrali, byerilgan nuqta balandligi va eng yakin gorizantal belgisi farqi relef kesimi balandligidan kam bulishi kyarak. Masalan byerilgan karta varaqiqismida gorizontallar 2,5 m dan utkazilgan, Malinovka tog'ibalandligi esa 159,7 m, demak, yaqinroq eng kichik gorizantalning balandligi 157,5 m (kvadrat 6411).

Joy nuqtalari belgilarini aniqlash.

Agar nuqta gorizontalda yotgan bo'lsa, uning belgisi gorizantal belgisiga teng. Masalan (kvadrat 6511) $N_1=152,5$ m, ikkinchi nuqtaning belgisi balandligi harxil bo'lgan gorizontallar orasida joylashgan. SHu sababli uni ko'zda intyerpolyasiyalash orqali topish mumkin. $N_2 = 155,0 + 1,3 = 156,3$ m. Agar nuqta bir nomli gorizontallar orasida yotgan bo'lsa uning balandligi taqriban topiladi: $0,5$ h gorizontaldan katta yoki kichik, ya'ni $N_3 = 155,0 - 1,2 = 153,8$ m.

Gorizontallar orasida yotgan 4 nuqtaning balandligi N_4 ni topish uchun esa chiziqli intyerpolyasiyalashning quyidagi formulasini qo'llash mumkin:

$$H_B = H_n + (S_{nb} / S_{mn}) h,$$

Bu yerda N_n — pastda quyi yotgan gorizantal balandligi, S_{nb} —Bnuktadan pastda quyi yotgan gorizontalgacha bulgan masofa, S_{mn} yondosh gorizontallar orasidagi masofa, h — relef kesimi balandligi.

Echish: kartada $S_{d4}=150$ m; $S_{mn}=475$ m ulchaymiz, ular- ni va ma'lum $N_n=152,5$ m va $h=2,5$ m qiymatlarni (4.6.2.) formulaga qo'uysak,

$$N_v = 152,5 + (150/475) 2,5 = 153,3 \text{ m.}$$

Nazorat savollari

1. Joyning relefi haqida tushuncha byering
2. Relefnig xaritadagi ko'rinishi qanday bo'ladi

3. Gorizontol nima?
4. Gorizontollarning hususiyatlari qanday?
5. Balandlik tizimi
6. Topografik karta va plan tarifini byering?
7. Karta va planning asosi farqi nimada?
8. Joyning kesimi va uni masshtabi qanday bo'ladi?
9. Masshtab turlarini sanab o'ring?
10. Ko'ndalang masshtabni rakamlang va misol keltiring.
11. Masshtab aniqligi nima?
12. Joyning sonli va matematik modellari nima?

3 - Ma'ruza

Mavzu: Joyida burchak o'lchash


Reja

1. Gorizontol va vertikal burchak o'lchash asosi.
2. Burchak o'lchash asboblari. Optik va avtomatlashtirilgan elektron teodolitlar.
3. Teodolitlarni tekshirish. Teodolitni tayanch nuqtada ish holatiga keltirish.
4. Gorizontol burchak o'lchash usullari.
5. Vertikal burchak o'lchash va qiyalikni hisoblash.

Tayanch so'zlar: Teodolit, limb, qiyalik burchak, shtativ, shovun, adilak, taglik, alidada, vernyer, qarash trubasi.

Joyda gorizontol va vertikal burchak o'lchanadi. Gorizontol burchak o'lchash prinsipini misolda ko'rib chiqamiz.

Joyda A, V, S nuqtalar byerilgan deylik (3.1.1.- rasm). A nuqtadan R tekislik o'tkazamiz. V, S nuqtalarni R tekislikka proeksiyalaymiz. SHunda Av va As chiziqlar hosil bo'ladi. Av va As chiziqlar va AA' tik chizig'idan o'tuvchi M va N vertikal tekisliklar o'tkazamiz.



Tug'ri burchakli koordinata usulida joyidagi har bir tafisoatni nuqtasi abstsissa H o'lchashlar tasvir olish asosini eng yaqin nuqtasidan teodolit yo'llari buylab va ordinata U teodolit yo'lidan joyidagi nuqtagacha masofa o'lchanib aniqlanadi ordinat U **ekkyer** va ro'letkadan foydalanib o'lchanadi.

Outhiy usul Ochiq joylarda qo'llanilib, tafsilot nuqtasining holati, teodolit yo'lining moe tomonlaridan o'lchangan burchak R va tasvir olish asosining moe shahobchasidan hisoblap S — masofa orkali aniqlanadi. O'lchash ishlari teodolitda bajariladi.

Burchaklarni tutashtirish usul Ochiq bevosita masofalarni o'lchash mumkin bo'lmagan hollarda, aniqlanautogtan nuqtaning holati teodolit yo'llarini shohobchalaridan o'lchangan ikki burchak orkali aniqlanadi.

Chiziqlarni tutashtirish usuli chiziq uzunligini o'lchash qulay joylarda qo'llaniladi. O'lchashlar shahobchalarda ruletka bilan bajariladi.

Ma'lum nuqtalar chizig'ida uotgan tafsilot nuqtalarini holatini teodolit va chiziq o'lchash asboblari bilan aniqlash stvor usulini mazmunini tashkil qiladi.

Teodolit bilan tasvir olishda bir vaqtda abris va o'lchash jurnalini to'ldirib olib boriladi. Tasvir olish tomonlarini va tafeilotlarni konturlarini masshtabsiz hamda o'lchangan miqdorlari aniq ko'rsatilgan homaki chizma abris deyiladi. Jurnalda o'lchangan burchaklarni sanoqlari uozib boriladi.

Kamyeral ishlar davomida o'lchash jurnali va abris tekshiriladi, teodolit yo'llarini chizmasi to'ziladi.

Tomonlarini gorizontallar proeksichei hisoblanadi, teodolit yo'llarini koordinatalarini hisoblash qaydnomasi to'ldiriladi, chizma qog'oziga koordinatalar turi tuzilib, byerilgan masshtabda tafeilotli plan tuziladi.

3. Teodolitlar, ularning asosiy qismlari va vazifasi

Teodolit — gorizontalar va vertikal burchak, masofa hamda, orientirlash burchagini o'lchaydigan asboblardir. Gorizontalar va vertikal burchak o'lchash uchun boshqa asboblalar ham mavjud bo'lib, teodolit (gorizontalar burchak o'lchash uchun bussol, gonimometr; vertikal burchak o'lchash uchun kipregel, taxeometr va boshqalar) ularga nisbatan takomillashg'an va aniq o'lchaydigan asboblalar turkumiga qiradi.

Teodolitlar turli belgilari o'lchash aniqligi, konstruktiv tasvirlari avtomatlashtirish darajalariga va h.o. ko'ra, turlarga ajratiladi.

O'lchash aniqligi bo'yicha yuqori aniqliqdagi (o'lchash aniqligi 1), aniq (o'lchash aniqligi 2 — 5), tehnik (o'lchash aniqligi 15 — 30) va uquv (o'lchash aniqligi 60) turlariga bo'linadi. Turlarga moe ravishda teodolitlar T1, T2, T5, T15 va T30 shaklda uoziladi.

6.3.1— jadvalda ayrim teodolitlarni asosiy tasniflari keltirilgan.

Teodolitlarni asosiy tasniflari


6.3.1.—jadval

| Tasniflar | Teodolitlar | | | |
|---|--------------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| | T1 | T5 | T30 | T60 |
| O'lchash aniqligi | 1 | 5 | 30 | 60 |
| Trubani qo'rish maydoni | 1° | 1°30 | 2° | 2° |
| Qo'rish trubasini kattalashti — rish darajasi | 30-40 ^h | 25 ^h | 18 ^h | 15 ^h |
| Eng kichik vazirlash masofasi, m | 5 | 2 | 1,2 | 1,2 |
| Teodolit massa, kg | 11 | 4,5 | 2,5 | 2,5 |



Konstruktiv tasnifiga ko'ra teodolitlarni oddiy va takroriy' turlariga ajratiladi. Oddiy teodolitlarda limb taglik bilan mahkam biriktirilgan bo'lsa, takroriy turlarida limb o'z uqi atrofida aylanish qobiliyatiga ega. Hozirgi kunda chiqarilauotgan teodolitlarda burchak o'lchash doiralarni shishali bo'lib, ularni optiq teodolitlar deb ataladi. Eski konstruksiyani TT —5, TT —50 teodolitlarda doyra metallardan iborat edi.

Teodolitlar geofizik va marksheydrik ishlari uchun alohida tayyorlanadi. Misol uchun, T30 m, T15 m teodolitlari shahmatlarda qo'llanishg'a moslashtirilgan. Bunda sanoq olish mikroskopiga elektrik uoritish, moslamasida chang —to'zonda asrash moslamalari ko'zda tutilgan.

Vertikal doiradagi adilak o'rnini bosuvchi kompensatorli teodolit ham chiqarilishi mumkin (T15 K). Agar optiq truba tasviri tug'ri bo'lsa u holla P qarori qushiladi va u teodolitlarni shifiri 2T30P deb uozilishi mumkin. Bu yerda 2 raqami ikkinchi avlod deb tushuniladi. 6.3.1—rasmda teodolitni chizmasi keltirilgan, teodolitning asosiy uqlari ZZ va VV₁— vertikal va gorizontal HH₁ — silindirik adilan JJ₁ — vizirlash, qo'rish trubasining uqlari tug'ri chiziqlar bilan kursatilgan.



Silindrik adilok (2) asbobni uoki uni alohida qismlarini gorizontal tekislikka nisbatan ma'lum holatga keltirish uchun hizmat qiladi. Adilak shkalali bo'lib, har bir shtrih orasi 2 mm belgilangan. Adilak o'rtasini «pol—punkt» deb yuritiladi. 6.3.1-rasm. Teodalitni chizmasn. Alidada (3) limb markazida aylanuvchi moslama bo'lib, olish uchun unga qarama —qarshi uordamchi shkola vernyer (4) urnatilgan.




Sanok olish moslamalari teodolitning limb bo'laklarini hisoblash uchun hizmat qiladi va ular vernyer eski geodolitlarda, (TT —5, TT —50) goniometr, planime'rlarda shtrihli (2T30, T15) optiq mikroskop (T12) hamda mikroskop — mikrometr (T1) shaklida bo'ladi

(5). Shtrihli va shkalali sanoq olish moslamalari 6.3.2 —rasmda keltirilgan.

Qo'rish trubasi (6) ichki fokusirovkaga ega bo'lib, ko'zatilauotgan predietka vizirlash uchun hizmat qiladi. Qo'rish trubasi ob'ektiv (7), aqo'lyar (8) tirsagi va aqo'lyar trubkachasi (9) dan iborat. Oqo'lyar oldiga mahsus oynaga turlari

joylashtirilgan. Tur iplari aniq ko'zga kurinishi uchun aqo'lyar trubkachasi unga uoki chapga siljutilib ko'zga moslanadi.



6.3.2-rasm. 2T30-Teodalit.

Turli o'zoqdagi predmet tasvirlarini ravshan va tipik kurinishi uchun kremalyera vinti (10) foydalaniladi. Bu trubani predmetka tug'rilash — fokuslash deyiladi. Taglik va kutarg'ich vintlar (12) — teodolitik —ushlab to'rishg'a va limb tekisligini gorizontal holga keltirishg'a mahkamlash va mikrometr vintlar (m) — qo'rish trubasini predmetga dastlabki va aniq qilib qarashg'a, shtativlar (15) asbobni urnatish uchun hizmat qiladi. Quyida 6.3.2 — rasmda 2T30 teodolitni umumiy kurinishi va qismlarini nomi keltirilgan.

2. Taxeometrlarni sinash va tekshirish

Geodezik ishlarni olib borishdan avval barcha o'lchash asboblari sinaladi va tekshiriladi. **Sinash va tekshirish** deganda geodezik asboblarni mehanik va geometrik shartlarini to'liq rioya qilishi tushuniladi. Teodolitda mehanik shartlar —bu limb, oldida bo'laklarini o'zaro tengli, turli vintlarni ravon ishlashi, qo'rish trubkasini tinik, ravshan ko'rsatishi va h.k. hisoblanadi. Sinash orqali aniqlangan kamchiliklar mahsus ustahonalarda to'zatiladi. Geometrik sharoitlar yuqorida (1 bandda) keltirilgan uqlarning o'zaro joylashiga asoslangan.

Taxeometrni tekshirish quyidag'icha amalga oshiriladi:

1. Aylanada doiradagi silindrik adilak uqi HH_i asbob aylanish uqi ZZ_j ga pyerpendiqo'lyar bo'lishi shart ya'ni

$$HH_i \perp ZZ_j$$

Buning uchun silindrik adilak uqi ikki kutarg'ich vintlarga parallel qilib urnatiladi va bu vintlar buralib adilak pufakchasi "no'l —punktga" keltiriladi. Sungra adilak uqi 90° ga burilib, uchinchi vint uordamida o'rtaga keltiriladi. SHundan sung, aylanani 180° burab pufakcha siljishi baholanadi. Bu holatda pufakcha o'rtada bo'lsa shart bajarilgan bo'ladi, og'ishlar bir bo'lakda ortiqroq ko'zatilsa, adilak uqi to'zatiladi. Bunda kutarg'ich vintlar uordamida pufakcha OFHIU bo'laklarini yarmiga keltirilib, tug'rilovchi vintlar bilan pufakchani "no'l —punktga" suriladi. YUqorida keltirilgandek bu shart qayta tekshiriladi. SHunday qilib, aylanani har qanday holatida adilaks pufakchasi "nol —punktda" bo'lishi lozim.

2. Trubani vazirlash uqi JJ_i uning gorizontal aylanish uqi W_j ga pyerpendiqo'lyar bo'lishi lozim, ya'ni

$$JJ_i \perp VV_j$$

Mazkur shart bajarilmasa, kollimtsion hatolik hosil bo'ladi. Bu shartni bajarish uchun, M nuqtaga teodolit qaratilib, DCH1 (vertikal doyra chop holatida) va DU} (vertikal doyra ung holatida) mikroskopdan sanoq olinadi, sungra aylanani 180° o'zgartirib, limb mahkamlanadi, hamda ko'zatilauotgan nuqtaga vizirlanib gorizontal doiradan takroran DCH2 va DU2 sanoq olinadi. Olingan miqdorlar bo'yicha kollimtsion hatolik S hisoblanadi.

$$C = \frac{(DY_1 - DY_1 \pm 180^0) + (DY_2 - DY_2 \pm 180^0)}{4}$$

Agar, S ning miqdori sanoq olish moslamasining hatoligini ikqilanganidan katta ya'ni $|C| > 2t$ bo'lsa, (bu yerda 2T30 uchun $t=1$) u holla to'zatilauotgan sanoq quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$DCH_{my3} = DCH_2 - S, \text{ uoki } DU_{my3} = DU_2 + C$$

va to'zatilgan sanok miqdori mikrometr vint uordamida gorizon—tal doiraga quyiladi. SHunda trubani vizirlash uqi M nuqtadan siljiydi. Keyin vertikal vintlar dan birini bushatib, gorizontal vint uordamida iplar turlarini kesishg'an nuqtasini ko'zatilauotgan nuqtaga suriladi. Tekshirish takroran qaytariladi.

Ko'rish trubkasining aylanish uqi W_{if} teodolit gorizontal aylanish uqi ZZi perpendiqo'lyar bo'lishi kyarak, ya'ni

$$VV_1 \perp ZZ_1$$

bu shartni bajarish uchun teodolit ish holatiga keltirilib 10 —20m masofada gorizontga nisbatan 25 — 30° qiyalikda M nuqta tanlanib, trubaning turlar markazini shu nuqtaga karatiladi va doyra chap va ung holatda shu nuqtadan pastga qarab proeksiyalanib *tu* va SH2 nuqtalar belgilanadi. Burchak holatiga quyidag'icha hisoblanadi.

$$i = p \frac{m_1 m_2}{2Mn} \text{ bu yerda } m_1, m_2, \text{ va } Mn \text{ —moc ravishda nuqtalar oraligidagi masofalar; } r=206265.$$

Hisoblangan miqdor 1 katta bo'lsa, shart bajarilmagan hisoblanadi va u ustahonada to'zatiladi.

6.4. Taxeometrlarni sinash va tekshirish.

Buning uchun teodolit gorizontal holatga keltirilib, 20 —30m masofada osib quyilgan ipli shovunga qaratiladi. SHunda trubaning tik ipi shovunni byerkitsa, shart bajarilgan bo'ladi, aks holda tur ip to'zatg'ich vintlar uordamida tug-rilanadi. Buning uchun tur iplarining difragmasi bushatilib, ip shovunni butunlay byerkitgunga oqo'lyar tirsak buraladi va vertikal ip shovun chizishda bo'lishi ta'minlanadi.

6.5. Taxeometrni joyida ish sholatiga keltirish

Taxeometrni joyida ish holatiga keltirish deganda, tayanch nuqtalarga urnatish tushuniladi. Ish holatiga keltirish quyidagi tartibda bajariladi:

- a) asbobni markazlashtiriladi;
- b) asbobni aylanish uqini vertikal va silindrik adilak uqini gorizontal holatga keltiriladi;
- v) qo'rish trubasini ko'zatuv nuqtasiga qaratiladi;
- g) mikroskop ko'zga moslanadi;
- d) tanlangan yo'nalish bo'yicha orientrlanadi;

Ish boshlashdan avval shtativ: joyidagi nuqta ustiga, shtativ yuzani gorizontal holatda chamalab asbobni balandligi qo'zatuvchining kuqrangi bo'yicha urnatiladi. Sungra, shtativta mahkamlash vint uordamida teodolit urnatiladi biriktiriladi.

Burchak uchi uoki tasvir olish tayanch nuqtasi bilan limb markazidan utuvchi teodolitni uqini bir chiziqda uotishiga markazlashtirish deyiladi. Markazlashtirish ipi shovun uoki qo'rish trubasidagi optiq sentir orqali amalga oshirilishi mumkin.

Markazlashtirish uchun shtativni ouoqlarini gruntga botirish yo'li bilan shovunni nuqta ustiga keltiriladi, sungra teodolitni shtativ yuzida surib limb markazidan uqituvchi teodolitni uqini tayanch nuqta bilan bir chiziqda uotishiga yerishiladi.

Asbobni vertikal uqini tik holatga keltirish uchun gorizontal doiradagi silindrik adilak aylanada surilib, ikki kutarg'ich vinotlar»- yo'nalishi buylab quyiladi.

Keyin kutarg'ich vint buralib pufakcha o'rtaga keltiriladi. Aylana uchun vint yo'nalishiga 90° burilib pufakcha yana o'rtacha tug-rilanadi. Tug'ri urnatilganligini 2 — 3 marta qaytariladi. Barcha hollarda aylananing turli holatida pufakcha o'rtada to'rishi ta'minlanishi shart.

Qo'zatilauotgan ob'ektni va iplar turini aniq tasvirini yaqol ravishda kurinishini hosil qilish uchun qo'rish toubasini uorur osmonga uoki yahshi uoritilgan oq predmetga qaratib oqo'lyardagi diometr halqasi burab erishiladi. Qo'zatilauotgan predmetni tasviri esa kremalyer vinti orqali amalga oshiriladi.

Mikroskopii sanoq moslamasini ko'zga moslash, limdagi bo'laklarni aniq tasvirini qo'zatish uchun bajariladi. Bunda uoritg'ich ko'zgidan uoki diomeggrik halqadan foydalaniladi.

Tanlangan yo'nalish bo'yicha orentyerlash qo'rish trubasini tanlangan nuqtaga qaratilishi tushuniladi. Bunda, gorizontall doiradagi limbdagi miqdor dastlabki byerilgan burchakni ko'rsatishi lozim bo'ladi. Limbni orientirlash har doim ham bajarilaverilmaydi.

7 - Ma'ruza

Mavzu: Geodezik informatsion tizimlar va ta'minotli dasturlar.

1. Geoinformatsion (GIS) tizim. GPS (Global Position System) priyomniklari tugrisida ma'lumotlar. SMARTSTATION tizimi.
2. Ta'minotli dasturlar.

Geodezik informatsion tizimlar, ta'minotli dasturlar, ta'minotli dasturlar turlari va ular orasidagi bog'lanish va farqlari.

Oxirgi bir necha o'n yillardan buyon insoniyat axborot suronini boshidan kechirmoqda. U yildan-yilga kuchayib, inson faoliyatining ko'plab sohalariga kirib bormoqda. Bugungi kunda kartograflar ko'plab manbalardan olinadigan axborotlardan foydalanish mobaynida topografik, turli mavzuli geografik kartalar va atlaslarni tuzish, ayero va kosmik tasvirlarni deshifrovka qilish, dalada o'lchash natijalarini qayta ishlash va kompyuter tizimlarida ma'lumotlarni to'plash bo'yicha boy tajribaga egalar.

Ma'lumotlarning ko'plab turlarini vaqt o'tishi bilan tez-tez o'zgarib turishi, oddiy usulda tuziladigan qog'ozli kartadan foydalanishni ancha qiyinlashtirib yubormoqda. Bugungi kunda tezkor axborotlarni qabul qilish, ularning dolzarbligini ko'rsatish faqatgina avtomatlashtirilgan tizim kafolatlashi mumkin. Shu o'rinda zamonaviy GIS – bu ko'p miqdordagi grafikli va mavzuli ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan, baza asosida ish bajarish imkoniyatiga ega bo'lgan modelli va hisobli funksiyalar bilan birlashgan, fazoviy ma'lumotlarni kartografik shaklga aylantirish, turli xulosalar chiqarish va monitoring ishlarini amalga oshiradigan avtomatlashgan tizim, deb qaraladi.

Bugungi kunda kompyuter savodxonligi omma orasida ancha oshgan. GISda tuzilgan karta oddiy qog'ozli kartadan yaxshi bezalgani, kompyuterli shakldaligi, qo'lda bajarib bo'lmas darajadagi aniqligi va boshqa bir qator afzalliklari bilan farq qiladi. Kartaga istagancha o'zgartirish kiritish, yangi mazmun va bo'yoq byerish, diagramma va boshqa ma'lumotlarni kiritish, o'chirish va h.k. ishlarni bajarsa bo'ladi. Buning uchun muallifning shaxsan o'zi karta tuzishning kompyuterli texnologiyalari bilan mukammalroq tanishishi va ular asosida karta tuzib ko'rishi kyerak.

Karta yaratishning bu texnologiyasi bugungi kunda, birinchidan - sezilarli darajada universallashtirgan, ikkinchida - juda tez rivojlanayotgan, inson faoliyatining hamma sohalarini qamrab olayotgan jarayondir. Geografik axborot tizimlari sohasida asosiy bilimlarni byeruvchi rus va chet mamlakatlar halqlari tillaridagi kitoblarda va GISning turli sohalariga oid bo'lgan monografiyalar va konfyerensiya matyeriallari orqali tadqiqotchilar GIS tizimiga ham nazorat va ham amaliy yangiliklar kundan-kunga ko'plab kiritmoqdalar.

Hozirgi paytga kelib GISning 20 dan ortiq ta'rifi mavjud bo'lib, ularning har biri o'zicha e'tiborga loyiq. Intyernet va davriy ravishda chop etilayotgan ilmiy jurnal va adabiyotlarda GISning qo'yidagicha ta'riflari keltirilgan:

1. *Albyer R.* GIS - bu geografik ma'lumotlarini saqlash, ularga ishlov berish va natijalarni tasvirlay oladigan apparat-dasturli vosita va inson faoliyatidan iborat bo'lgan majmuadir.
2. *Byerry J.* GIS - bu ichki pozitsionirlangan avtomatik fazoviy axborot tizimi bo'lib, malumotlarni kartografik tasvirlash, taxrir qilish va boshqarish uchun yaratiladi.
3. *Clarce K.C.* GIS - bu fazoviy taqsimlangan hodisalar, jarayonlar va voqealarni kuzatishda nuqtalar, chiziqalar va maydonlar ko'rinishida bo'lgan manbalarning malumotlar bazasidan iborat bo'lgan axborot tizimining maxsus holatidir.

4. *Degani A.* GIS - bu foydalanuvchilarning maxsus talablarini aniq konsepsiya va texnologiyalar tarkibi doirasida qoniqtirish maqsadida EHMlarda malumotlarni fazoviy qayta hisoblash, grafikli va kartografik o'zgartirish uchun qo'llaniladigan ko'pgina modellar birlashmasini o'zida mujassamlagan dinamik uyushgan ma'lumotlar tizimidir.

5. *Konecny M.* GIS - bu geografik tadqiqotlar va ularning natijalaridan amaliyotda foydalanish uchun qulay bo'lgan malumotlarni to'plashni, EHM xotirasiga kiritishni, ishlov byerishni va uzatishni amalga oshiruvchi shaxslar, texnika va tashkillashtirish vositalaridan iborat bo'lgan tizimdir.

6. *Koshkarev A V.* GIS – bu fazoviy ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov byerish, tasvirlash, tarqatish, atrof muhit ob'ektlarini ro'yxatga olish, natijani tahlil qilish, modellashtirish, bashoratlash va boshqarish bilan bog'liq ilmiy va amaliy geografik masalalarni echishda samarali foydalanish uchun joy haqidagi malumotlar va bilimlarni birlashtirishni ta'minlaydigan apparat-dasturli inson-mashina majmuasidir.

7. *Langeforce B.* GIS - bu tarkibida xudud haqidagi komponentlar ma'lumotlariga ega bo'lgan, yig'ish, uzatish, saqlash, ishlov byerish va axborot byerishdan iborat tizimdir.

8. *Lillecand P.* GIS – bu ma'lumotlar bazasini kengaytirishga, ma'lumotga ishlov byerishga, ularni karta va jadval ko'rinishida tasvirlashga, xo'jalik faoliyatining u yoki bu masalasi echimi to'g'risida qaror qabul qilishga moslashgan ma'lumotlar bazasi, apparatura, ixtisoslashgan matematik ta'minot va dasturlar to'plamidan iborat bo'lgan tizimdir.

9. *Mas.Donald C.L., Grain I.K.* GIS – bu geografik aniq ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, murakkablashtirish, qidirish va tasvirlash uchun loyihalashtirilgan tizim. Kartografik asosga nisbatan geografik aniqlangan, mavzuli qatlamlar ko'rinishida saqlanayotgan ma'lumotlar ustida ishlashga va ularni boshqarishga moslashgan tizimdir.

10. *Simonov.A V.* GIS - bu geografik koordinatali ma'lumotlarni raqamli tasvirlash, to'ldirish, boshqarish, ko'paytirish, tahlil qilish, matematik-kartografik modellashtirish va obrazli tasvirlash uchun yaratilgan apparat-dasturli vositalar va algoritmik muolajalar tizimdir.

11. *Star J.I., Cosentino M.J., Foresman T.W.* GIS - bu malumotlarni yig'ish, saqlash, izlash va ular ustida ishlash uchun yaratilgan aniq fazoviy tizimdir. GIS – bu aniq fazoviy malumotlarni boshqarish va taxrir qilish vositasidir.

12. *Tikunov V.S.* GIS - bu malumotlarni yig'ish, tizimlash, saqlash, ishlov byerish, baholash, tasvirlash va tarqatishni amalga oshiradigan va ular asosida yangi axborot va bilimlarni olish vositasi sifatida qaraladigan interaktiv tizimdir.

13. *Trofimov A.M., Panasyuk M.V.* GIS - bu avtomatik vositalar yordamida amalga oshirilgan tabiat va jamiyat orasidagi tasvirning tyerritorial sohalari, ularni izlash, ma'lumotlarini kiritish, modellashtirish va boshqa dasturiy ta'minot haqidagi bilimlar tizimlari omboridir.

14. *Vitek J.D., Walsh St. J., Gregory M.S.* GIS - bu qaror qabul qilishni quvvatlash uchun geografik jihatdan aniq malumotlarni kiritish, umumlashtirish va taxlilni taminlashga qaratilgan axborot tizimidir.

15. *Asosiy iboralarning ma'noli lug'ati: Geoinformatika.* GIS - bu fazoviy malumotlarni yig'ish, saqlash, ishlov byerish, kiritish, tasvirlash va tarqatishni ta'minlovchi axborot tizimidir.

16. *Raklov V.P.* GIS - bu fazoviy ob'ektlar haqidagi malumotlarni yig'ish, to'plash, saqlash, ishlov byerish, tasvirlash, taxlil qilish va tarqatish uchun mo'ljallangan texnika va dasturiy vositalar, texnologik, tashkiliy-metodik va axborotli ta'minot tizimidir.

Bu ta'riflarning ko'pchiligida GIS haqida o'xshash so'z va gaplar mavjud bo'lsada, umuman ishlatilmagan iboralar ham bor. Bu esa GISni kundan-kunga murakkablashayotganini bildiradi, uni chuqurroq o'zlashtirmasdan tushunish va tassavur qilish qiyinligini anglatadi.

Bizning predmetga yaqin bo'lgan GISning quyidagi ta'rifini keltirishimiz mumkin: GIS – bu tabiat va jamiyat to'g'risidagi topogeodezik, Yer resurslari va boshqa sohalardagi kartografik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, saqlash, yangilash, tahlil qilish va tasvirlashni ta'minlaydigan apparat-dasturli avtomatlashgan kompleksdir.

GISni bilishning eng oddiy usuli – u bilan ishlash, uning imkoniyatlarini ish jarayonida bilib olishdir. Aslida GIS – bu bitta texnik vosita bo'lib, uning yordamida faqatgina chiroyli qilib kartani

jihozlash emas, balki echimi mavjud bo'lmagan ba'zi masalalarni echish ham mumkin. SHu sababli GISning imkoniyatlari juda katta. Demak GIS – turli usul va uslublar yordamida real borliq to'g'risida to'plangan katta hajmli axborotlarni o'zining ma'lumotlar bazasida jamlab, ishlay oladigan keng rivojlangan kompyuterlashgan aniq tizimdir.

Fazoviy ob'ektlar sifatida biror bir fazoviy nuqtaga bog'langan joy ob'ektlari va hodisalar tushuniladi, ya'ni bu ob'ektlarning boshqa ob'ektlarga nisbatan joylashgan o'rni, shakli, o'lchamlari ahamiyat kasb etadi. Fazoviy ma'lumotlar esa ob'ektlarning fazoda va boshqa ob'ektlarga nisbatan joylashishi va geometriyasini ifodalovchi ma'lumotlar hisoblanadi.

Bugungi kunda GISga foydalanilishi jihatidan teng keladigan tizim yo'q, chunki uni bilimlarning barcha sohasida qo'llash mumkin. SHunga qarab boshqa fanlarda GISni tushunish bo'yicha ba'zi ta'riflarni ham keltiramiz.

Tabiiy geografiyada GIS tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni, ularning kelib chiqishini, o'zaro bog'liqligini va yer yuzasida tarqalganligining mohiyatini tushuntiradi hamda bu metodlarni amalga oshirish imkonini yaratadi; har qanday tadqiqot va qarashlarga fazoviy yondashish kyerakligini tavsiya etadi. GIS orqali geografiya fani oldida turgan muhim vazifalarini echish uchun juda zarur bo'lgan kuchli qurolga ega bo'lib bormoqda. Bu fanda GISni malumotlarni yig'ish, tizimlash (tartibga solish), saqlash, ishlov byerish, baholash, tasvirlash va tarqatishni amalga oshiradigan va ular asosida yangi axborot va bilimlarni olish vositasi sifatida qaraladigan intyeraktiv tizim, deb ta'riflana bo'ladi.

Ijtimoiy va iqtisodiy geografiyada GISdan foydalanib, ro'yxatli-statistik ma'lumotlarni to'plash, ularni qayta ishlash, tasvirlash ishlarini bajarish mumkin. Ijtimoiy-iqtisodiy kartalarda genyeralizatsiya ishlari matematik metodlar va avtomatizatsiyani qo'llash natijasida bajarilib, iqtisodiy geografiyani haqiqiy geografik yo'nalish olishini va formal-statistik usuldan ajratilishini ta'minlaydi. Bu fanda GIS - apparat-dasturli vosita va inson faoliyatidan iborat bo'lgan geografik malumotlarini saqlash, ularga ishlov byerish va natijalarni tasvirlay oladigan majmua sifatida qaraladi.

Chet mamlakatlar geografiyasida turli xususiyatli va turli mamlakatlar tillaridagi ma'lumotlarni to'plash, ularni bir-biri bilan bog'lash, mavjud manbalar bilan taqqoslash ishlari jarayoni bajariladi. Bu esa tizimli avtomatlashtirilgan "bilimlar bankini" yaratishni talab qiladi. Bu fan sohasida GIS apparat-dasturli inson-mashina majmuasi deb qaralib, ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov byerish, zarur bo'lganda tasvirlash va tarqatish, modellashtirish va bashoratlash bilan bog'liq ilmiy va amaliy geografik masalalarni echishda samarali foydalanishni ta'minlaydigan tizim sifatida tushuniladi.

Oxirgi ikki tizim mazkur qo'llanmaning keyingi boblarida batafsil ko'rib chiqiladi, bu yerda esa fotogrammetrik tizim tarkibiga kiruvchi alohida jarayonlar to'g'risida qisqacha to'xtalamiz. Bularga:

1. Joyni ayero- va kosmik suratga olish.
2. Tayanch nuqtalarni planli va balandlikli bog'lash bo'yicha olib boriladigan geodezik ishlar.
3. Ma'lumotlarga fotogrammetrik ishlov byerish jarayonlari kiradi.



7.1-rasm. Yerning suniy yo'ldoshi

1. Yer yuzasining ayero- va kosmik fotosuratlarini ayerofotoapparatlar yordamida olinadi, so'ngra negativlardan kontaktli yoki proeksion usullar bilan qog'oz yoki deformatsiyalanmaydigan plyonkalarda diapozitivli fotonushalar tayyorlanadi. Keyingi yillarda suratga olishda raqamli ayerofotokamyeralardan foydalanilmoqda (7.1-rasm).

Ular yordamida xududning yoki biror joyning raqamli tasvirini olish va keyinchalik uni to'g'ridan-to'g'ri kompyutyerga kiritish mumkinligi nafaqat rasmlarga kimyoviy ishlov byerish, hatto skanirlash bosqichida tasvirni raqamli shaklga o'tkazish jarayonlari chetlab o'tilmoqda. Ular oddiy fotokameralar kabi ishlaydi, lekin ularda fototasvirni elektr signallarga aylantiruvchi fotosezgir elementlar ishlatiladi.

Nazorat savollari

1. Hozirgi paytda plan va kartalar necha xil usulda yaratilmoqda?
2. Yer resurslarini kompleks kartaga olish ishlarida qanday texnologik ishlar amalga oshiriladi?
3. Fotogrammetrik tizim nimani anglatadi?
4. Ortofotoplan va kartalarni raqamlash tizimi nimani anglatadi

8 - Ma'ruza

Mavzu: Avtomobil yo'llari haqida umumiy ma'lumotlar va trassalash dala ishlari

1. Avtomobil yo'llari haqida umumiy ma'lumotlar.
2. Avtomobil yo'lining elementlari.
3. Avtomobil yo'llarini qidiruv-loyihalashdagi geodezik ishlarning xususiyatlari va tarkibi.
4. Yo'llarni harita va planlarda trassalash.
5. Trassalashdagi dala topografo - geodezik ishlar..

Tayanch so'z va iboralar.

Muhandislik qidiruv ishlari, texnik topshiriq qidiruv dasturi, hisobot hujjatlari, loyiha bosqichlari, geodezik rejalash asosi, qurilish maydonidagi geodezik tur, rejalash turlarini aniqlash.

1. Muhandislik inshootlarini qidiruvdagi va qurishdagi geodezik ishlarining vazifalari va tarkibi.

Inshootlarini qurishdagi loyiha ishlarini ishlab chiqishda muhandislik qidiruv ishlaridagi barcha geodezik ishlar qabul qilingan qurilish me'uroiy va kridalari bo'yicha olib boriladi. Muhandislik qidiruv ishlarini hajmi va tarkibi, tasvir masshtabi va o'lchash aniqligi qidiruv dasturi bo'yicha belgilanib, loyihadagi joyning sharoiti, loyihalash bosqichlariga loyihaladanigan inshootni harakteriga moslanadi. Qurilish ob'ektlarining loyihalashdagi geodezik qidiruv ishlarining asosiy vazifasi loyiha bo'limlarini topografik geodezik ma'lumotlari bilan to'liq ta'minlashdan iborat. To'plangan bu ma'lumotlar loyihani sifatini ishlab chiqishda va baholashda asosiy omil hisoblanadi.

Inshootlarni loyihalash maqsadida bajariladigan muhan-dislik —qidiruv ishlari mahsus qidiruv, qidiruv —loyihalash va loyihalash tomonidan olib boriladi. Muhandislik — geodezik qidiruv ishlar tarkibi quyidagilardan iborat

- qurilishdagi hududning bo'yiga o'tgan yillardagi topografik — geodezik ma'lumotlarni to'plash va ularni tahlili;
- tasvir olish planli — balandlik geodezik turlarini tashkil qilish;
- 1: 10000 —1:500 masshtabli topografik tasvir olish;
- avvalgi yillar olingan topografik planlarni yangilash;
- chiziqli inshootlarni tressolash va tresso elementlarni joyda biriktirish;
- muhandislik — geologik qazilmalar, geodezik va boshqa nuqtalarni bog'lash;
- gidrometrologik ishlar bilan bog'liq geodezik ishlarni bajarish;
- havfli geologik jarauonlar bilan bog'liq geodezik ishlar;
- mavjud korxonalar, inshootlarni loyihalash, ta'mirlashdagi geodezik ishlar, mavjud avtomobil yo'llarni tasvirga tushirish;
- muhandislik — geodezik materyiallarni tahlil qilish va ko'paytirishdir;

Muhandislik inshootlarni qurishdagi geodezik ishlar majmuasi ham qurilishda qabul qilingan me'uroiy hujjatlar bo'yicha olib boriladi. Qurilishdagi geodezik ishlarni tarkibi hajmi va aniqligi loyiha hujjatlaridagi inshootni geometrik ko'rsatkichlariga mos kelishini ta'minlashi kerak.

Geodezik ishlar qurilishdagi texnologik jarayoniga

ajralmas qismi bo'lib, mazkur qurilish uchun qabul qilingan mahsus ishlarni muddatlarida bajariladi.

Muhandislik inshootlarni qurishdagi geodezik ishlar tarkibi quyidagilardan tashkil topgan:

- qurilish ob'ektlari uchun geodezik rejalash turlarini tashkil qilish;
- ichki maydonlarni, chiziqli inshootlar va ular elementlarini, vaqtinchalik qurilma, inshootlarni rejalash;
- loyiha ishlarida ko'rsatiltan, ichki rejalash turlarini tuzish va batavsil rejalash ishlari;
- qurilish mashinalari va mexanizmlarni geodezik boshqaruv;
- qurilish montaj ishlarini nazorat qilish va ijroya tasvir tushirish;
- qurilishlarni deformatsiyali geodezik ko'rsatuv va boshqalardan iborat;

2. Muhandislik-geodezik qidiruv ishlari.

Muhandislik — geodezik qidiruv quriladigan inshootlarni loyihalashda kerak bo'ladigan topografik—geodezik materyallar va ma'lumotlar hamda boshqa turdagi (iqtisodiy, gidrometrologiya, muhandislik geologik va h.o) muhandislik qidiruvlarni bajarilishini ta'minlashi kerak.

Muhandislik — geodezik qidiruv ishlarini bajarish uchun texnik topshirik to'zilib, taht qilinishi qidiruv dasturi tayyorlanishi, hisob—kitob va ishlarni bajarish uchun ruhsatnoma olinishi lozim.

Qidiruv ishlarini bajarish uchun tuziladigan texnik topshiriq buyurtmachi tomonida tayyorlanib, qidiruvni tashkil qilish va bajarish qidiruv dasturi va hisobot hujjatlari tuzish uchun barcha ma'lumotlar keltiriladi.

Texnik topshiriq, asosida qidiruv ishlarini bajaruvchi korxonaga muhandislik qidiruv ishlarini dasturi, hajmi, tarkibi, uslubi, texnologiyasi va ishlarni ketma — ketligi tartibi ishlab chiqiladi. Dasturni texnik topshiriq, bilan mosligi buyurtmachi bilan kelishib olinadi.

Muhandislik — geodezik qidiruv ishlarining tarkibi va hajmi nafaqat loyihalanaotgan hududni iqlimiy sharoitlari va inshootni katta kichikligi, loyiha bosqichlariga ham ko'proq, bog'liq bo'ladi (texnik iqtisodiy asos T.I.A, texnik iqtisodiy hisoblar —T.I. H loyiha— L (ishchi loyiha — I.L.) va ishchi hujjatlar).

Yuqorida qayd qilingan muhandislik — geodezik qidiruv ishlarini tarkibi barcha loyiha bosqichlari uchun bir tarafdin bir hil bo'lishi bilan birga, ayrim hollarda farq, qilishi ham mumkin. Chunonchi: loyihalashni boshlang'ich bosqichlarida (T.I.A. uoki T.I.H.) muhandislik — geodezik ishlar katta maydonlarda olib boriladi. Bu esa o'z navbatida ayerokosmik usullarni qo'llash, mayda mashtabli topografik planlarni tuzishg'a olib keladi:

Har bir keyingi loyihalash boskichida oldingi boskichdan bajarilgan qidiruv materyallaridan foydalanib, topografik tasvir mashtabi yiriklashadi va yer usti usullar bilan tuplanadigan topografo —geodezik ma'lumotlar hajmi ham oshib boradi; Ishchi hujjatlar loyihalash boskichida qidiruv ishlari asosan yer usti geodezik usullar bilan bajarilib loyihalanaadigan inshootni asosiy uqlari va elementlarni joyida belgilanib mustahkamlanadi.

Chiziqli inshootlarni qidiruvda, dala qidiruv shplarida quyidagi ishlar bajariladi:

Trassalash ishlari bajariladi va trassa joyida belgilanib mahkamlanadi; $H—j$

Trassa plani — balandlik koordinatalari bo'yicha davlat geodezik turlariga bog'lanadi:

Trassa buylab, trassa yo'nalishi tasmasini topografik tasvirga olinadi.

Hozirgi kunda yuqorida qayd qilingan an'anaviy loyihalashda yangi texnologiyaga va avtomatlashtirilgan loyihalash tizimiga (SAPR) o'tish munosabati bilan, qurilishda muhandislik — geodezik va boshka tur qidiruv ishlarini texnologiyasini o'zgartirishni takazo qildi. Hususan, chiziqli inshootlarda mazkur tizimda loyihalashda qidiruv ishlarini hususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi. Bular, trssani rakobatdosh variantlarini utkazish uchun keng maydondagi qidiruv

ishlari, malumotlarni hajmini ko'payishi va hozirgi zamon texnik vositalardan keng foydalanish, dala va kameral ishlarni, keyingi hisobiga ko'payishi va zamonaviy. Topografik ma'lumotlar joyning matematik va hamda sonli modellardan foydalanishlardan iboratdir.

3. Qurilishdagi geodezik rejalash

Muhandislik inshootlarni qurishda geodezik ishlar joyida inshootni holatini aniqlovchi geodezik belgilar bilan mustahkamlangan tur shaklidagi geodezik rejalash asoslarini tuzishdan boshlanadi. Mazkur asos keyingi qurilishlarni bajarish va o'lchashda kam mehnat talab qilish va kyerakli aniqlikda ish olib borishni ta'minlaydi.

Qurilish uchun to'zilgan geodezik rejalash asosi, qurilish olib borilauotgan hududdagi davlat geodezik turlariga bog'ab yaratiladi. Bunda loyhalanauotgan va mavjud inshoot uchun joylashtirilgan va qurilish maydonidagi muhandislik turlari, ularni belgilarini mustahkamligi, saklanishi, geologik jarauonlar, dinamik va boshka hodisalarni ta'siri hisobga olinadi.

Qurilish maydonidagi rejalash turi inshootni asosiy uqlarini joyga kuchirish, kyerak bo'lganda ijroya tasvir olish uchun tashqi rejalash turini tuzish uchun xizmat qiladi.

Quriladigan inshootga ko'ra qurilish maydonidagi rejalash turi qurilish bo'yicha tug'rilanuvchi chiziq uoki tug'ri qurilish turlaridan iborat bo'ladi. Turlarning tomonlar o'zunliklari 50, 100, 200 m qilib belgilanadi. Balandlik asosi qurilish maydonida nivelirlash turlari shaklida to'zilib davlat nivelirlash turini ikki repyerga bog'langan bo'ladi.

Planli va balandlik rejalash turlari ko'pincha o'zaro bog'lashg'a mos bo'ladi. Geodezik rejalash turi qurilish boshlanmasdan 10 kun avval barpo qilinadi. Qurilish davrida geodezik rejalash turlarini belgilarini holati doimo ko'zatib boriladi va bir yilda ikki marta geodezik o'lchashlar orkali qayta tekshiriladi.

Qurilish davrida geodezik rejalash turlarida inshoot uqlarini va balandligini ishchi hujjatdagi byerilgan aniqlikda joyiga kuchirishni ta'minlash uchun rejalash ishlari bajariladi. Ko'zatuvchi rejalash ishlarini bajarishdan oldin rejalash tur belgilarini holatini qayta geodezik o'lchashlar bilan tekshirish ishlarini olib boradi. Ayrim hollarda (tunnellar, puteprovodlar qurilishida) ichki rejalash turlari barpo etilib, tashqi rejalash turlariga bog'lanadi.

Avtomobil yo'llarini qo'rishda, maydonlarni vertikal planirovka ishlarida qurilish me'uorlariga ko'ra rejalash turlari uchun quyidagi aniqlik qabul qilinadi:

Burchak o'lchashlar— 30° ; Chiziqli o'lchashlar — 1:2000; Nisbiy balandliklar o'lchashlarda har 1 km yo'l uchun 15 mm.

Tunnellar, puteprovod, ko'priklar va ayeradrom inshootlar va h.o uchun mazkur aniqliklar yana ham yuqorirok qabul qilinadi.

Muhandislik inshootlarini ayrim kislmlari va elementlari loyiha miqdorida geodezik o'lchashlar orkali tekshirilganda, cheklangan og'ishlar m dan oshmasligi shart. Bu yerda m — rejalash turini barpo qilishdagi o'rtacha kvadratik hatolik.

Inshootni kislmlari va elementlarini balandlik holatlari moe aniqliikda hamda dastlabki gorizontdan montaj qilinauotgan balandliklarga kuchirish geometrik nivelirlash usuli bilan bajariladi.

Nazorat savollari.

1. Muhandislik geodezik qidiruv ishlarini hajmi va tarkibi nimalarga borlik bo'ladi.
2. Muhandislik geodezik qidiruv ishlarini asosiy vazifasi nimadan iborat.
3. Muhandislik geodezik qidiruv ishlarini tarkibini sanab uting.
4. Loyiha boskichlarini noma—nom sanab uting va mazmunini tushintiring.
5. Muhandislik qidiruvdagi loyiha boskichlaridagi farki nimalardan iborat.
6. Geodezik rejalash turi qanday to'ziladi va uni vazifasi nima.
7. Rejalash turlarini tuzish aniqliklari haqida so'zlab byering.

9 - Ma'ruza

Mavzu: Trassa bo'ylab teodolit va nivelir bilan bajariladigan ishlar

Reja:

1. Uzala inshootlar, ularni trassalash.
2. Kamyeral trassalash.
3. Dalada trassalash.
4. Joyni styereomodellar yordamida trassalash.
5. Piketlar va ko'ndalang mustahkamlash (profil)
6. Trassada qayrilmalarning asosiy elementlarini aniqlash va joyda belgilash.

9.1. Uzala inshootlar ularni trassalash

a) Uzala inshootlar

b) Trassa va trassalash.

Uzala inshootlar - ishlab chiqarish qurilmalarini barpo qilishda avvalo, doimo ana shu ob'ektgacha keladigan yo'llar (temir yo'l, avtomobil yo'llari, elektr uzatgich, aloqa, kanal, suv, ...) kabi injenyerlik inshootlari uzala inshootlarga kiradi.


Trassa deb loyihasi tuzilayotgan uzala inshootlarni karta yoki joyda belgilangan o'qiga aytiladi.

Ma'lum iqtisodiy va texnikaviy talablarga javob byeradigan trassa yo'nalishini karta va joyda aniqlash uchun bajariladigan kompleks ishlarga uzala inshootlarni trassalash (loyihalash) deyiladi.

Bunday loyihani tuzishda birinchi navbatda trassaning balandlik va plandagi holati hal qilinadi. Planda trassa mumkin qadar to'g'ri chiziq bo'ylab o'tishi kyerak, aks holda har qanday og'ish trassani uzayishiga qurilish va ekspluatatsiya xarajatlarini oshishiga sabab bo'ladi.

Trassaning ko'ndalang va bo'ylama profillar qiyaligi normadan oshmasligi kyerak. Ba'zi bir rel'ef sharoitda plan va profil talabiga javob byerish ancha og'ir bo'lishi sababli trassa tabiiy g'ovlardan ataylabdan aylanib o'tish kyerak bo'ladi. Demak trassa plani bir qancha alohida to'g'ri chiziqlardan tashkil topgan bo'lib, ular egriliklar bilan almashinib turadi.

Trassani egilish darajasi, qayrilmalar burchaklari qiymati bilan o'lchanadi. Trassaning qayrilish burchagi deb oldingi tomon davomi bilan ketingi tomon boshlanishida hosil bo'lgan $\angle \varphi$ ga aytiladi. Bu burilish nuqtasiga burilish uchi (BU) deyiladi.



I va II kategoriyani magistral temir yo'l, magistral quvurlar va uzala magistral uzatgichlarda qayrilma burchagi φ $15^\circ - 20^\circ$ dan oshmasligi (kyerak) tavsiya qilinadi. Bu esa bo'lajaak yo'l yoki quvurlar uzunligini kam miqdorda uzayishiga olib keladi. Temir yo'l va avtomobil yo'llarida hamda truboprovodlarda qayrilmalar aylanma shaklida o'tkazilib, gorizontaal aylanma radiusi inshootning turiga bog'liq bo'ladi. Masalan: temir yo'llarda minimal R q 400-200 m. Avtoyo'llarda bu qiymat yo'l kategoriyasiga qarab 600 dan 60 m gacha. Kanallardagi aylanma shu kanal kengligining boshlanishidan kichik bo'lmasligi kyerak. Truboprovod trassalarida $R_{qd} * 1000$ (d - truba diametri) ni tashkil qilishi kyerak.

Trassani loyihalash uchun qilinayotgan qidiruv ishlarida ikki asosiy masala hal qilinadi:

- 1) Geodezik, topografik va boshqa matyeriallar yig'ish (trassani o'tkazishda kyerak bo'ladigan)
- 2) Tabiat resurslaridan maksimal foydalangan holda (minimal xarajat bilan) o'tkaziladigan trassalar variantlarini tanlash.

Bu ikki ishni hal qilish odatda kamyeral usulda olib boriladi.

9.2. Kamyeral trassalash

Odatda injenyer-qidiruv ishlari ikki stadiyada bajariladi. Biroq yo‘l qurilishini bajarishda bu stadiyalarga kirmagan, ya‘ni texnik-ekonomik asoslash (TEO) ishidan boshlanadi. Bu bosqichning asosiy maqsadi rel‘ef, gidrografiya, geologiya, gidrogeologiya, fizikaviy geologiya voqiyliklar kabilarni nazarda tutgan holda trassa yo‘nalish variantlarini shlab chiqishdan iboratdir. Bu ish odatda eng qiyin sharoitdagi yirik qurilishlarda olib boriladi. SHuning uchun ham u kamyeral usulda bajariladi. Matyeriallar arxivdan olinadi.

Trassani belgilashda avvalo masshtabi 1:1.000.000 obzor topografik kartadan foydalaniladi. Bundan boshlang‘ich va oxirgi punktlar belgilanadi. Trassa yo‘lini aniqlash, rel‘efni o‘rganish va boshqa ishlar kamyeral usulda masshtabi 1:2500 yoki 1:50.000 masshtabli kartada, agar bular yo‘q bo‘lgan holda 1:100.000 masshtabli kartada bajariladi.

Trassa ma‘lum bo‘laklarda belgilangan punktlar oralig‘ida byerilgan qiyalikka asoslangan holda olib boriladi. Trassa qiyaligi rel‘ef xarakteri hamda o‘tiladigan yo‘l kategoriyasiga qarab byeriladi. CHunki har bir uzala inshootning o‘ziga xos qiyalik qiymatlari bor.

Temir yo‘llarda bu qiymat 10% dan oshmasligi, mahalliy yo‘llarda 20%, tog‘ yo‘llarida 30%. Avtomobil yo‘llarida chekli qiyalik 40-90% gacha o‘zgaradi. Eng kichik qiyalik irrigatsiya va suv kanallarida bo‘lib, u suvni yuvib ketmasligi hisobidan olinadi. YA‘ni qiyalik 0,01-0,2% bo‘ladi.

Ma‘lum masshtabli karta (1:M) hamda kesim balandligiga ko‘ra qiyalik bo‘yicha trassa quymasi (proeksiyasi) - l quyidagicha topiladi:

$$l = \frac{h}{i_{tr} \cdot m}$$

i_{tr} - trassa qiyaligi

m - karta masshtabi.

Masalan, 1:50.000 masshtabli kartada kesim balandligi hq10 m va i_{tr} q 20% bo‘lsin

$$l = \frac{100000 \text{ cm}}{0,02 \cdot 50000} = 1 \text{ cm}$$

quyma qiymatiga ko‘ra kartada ikki xil yo‘l - yerkin (volno‘y) yo‘l va qiyin (napryajenniy) yo‘llarga ajratish mumkin. Birinchi xil yo‘lda trassani mumkin qadar punktlar orasida qisqa yo‘ldan olib borish mumkin.

Ikkinchi xil yo‘lda esa ma‘lum qiyalik bo‘yicha trassani o‘tkazish juda mushkul. SHunga ko‘ra kartada ish qiymati nolga teng bo‘lgan nuqtalar topish va shular orqali trassa o‘tkazishga to‘g‘ri keladi.

qiymati nol bo‘lgan chiziq deb trassa o‘tish davomida xech qanday ko‘tarma va o‘yilma ishlar bajarilmaydigan yo‘lga aytiladi.

Bu yo‘nalish kartada sirkulni qadami ma‘lum l uzunlikka qiligan holda gorizontallararo nuqtalar belgilanib ular o‘zaro biriktirishdan hosil bo‘ladi.

Nol otmetkaga ega bo‘lgan chiziq o‘z-o‘zidan bo‘lajak yo‘lning o‘qi vazifasini bajarolmaydi, chunki u bir qancha qisqa chiziqlar turkumidan tashkil topgan bo‘ladi. SHunga ko‘ra bu siniq chiziqli egri yo‘llarni goho umumlashtirib to‘g‘rilashga to‘g‘ri keladi.

9.3. Dalada trassalash.

Kamyeral trassalash natijalaridan foyalangan holda talabga javob byeradigan va tejamkor hisoblangan trassa yo‘nalishi (qator variantlardan) tanlab olinadi. SHu tanlangan trassa bo‘ylab dalada ish bajarish - texnikkaviy loyihalash tejamkorlikka asoslangan holda yer yuzida va ayeros‘emka ishida bajarilishi mumkin. Agar joyning plani yirik masshtabli bo‘lsa, izlanayotgan trassa qisqa masofali bo‘lsa bu ish yer yuzida olib boriladigan usul bilan bajarilishi mumkin.

Agar izlanish ishi katta uzunlikdagi trassada bajarilsa, hamda kyerakli masshtabdagi karta va planlar bo'lmasa, u holda trassa bo'ylab ayerovizual kuzatish va marshrut bo'ylab ayerofotos'emka ishi bajariladi.

Trassa tayanch nuqtalar bilan ta'minlangan bo'lishi kyerak. qurilish ishi boshlanish oldidan uni osongina topa olinishi kyerak.

Barcha tayanch punktlar, burchak uchlari, belgilangan nuqtalar, stvor nuqtalari tabiiy to'siqlardan cheklanib o'tish va tutashuvchi nuqtalar, yog'och yoki temir-beton ustunlar bilan mustahkamlanib, ularni joydagi narsalar bilan qanday holatda turishini ko'rsatuvchi abris jurnallari tuzilishi kyerak. Piketlar, plyusli nuqtalar, qoziqlar bilan mustahkamlanib, atrofidan kanava o'tkazilishi kyerak, znaklar yozuvi, moyli bo'yoq bilan yozilishi kyerak, trassa qayrilish burchagi uchlaridagi ustunlardagi yozuvlar burchak uchi tomonida turishi, stvor nuqtalarida esa - sanog'i kam piketga qaragan tomonda yozilishi shart.


9.4. Piketaj va ko'ndalang profillarni mustahkamlash

Bu ish asosan tanlangan trassa bo'ylab bajariladi. Ishning boshida plan yoki kartografik matyeriallarda ko'rsatilgan boshlang'ich va bir necha oraliq nuqtalar joyda aniqlanadi.

Trassaning boshlang'ich nuqtasi 15-20 sm qoziq bilan mustahkamlanib yoniga uzunligi 30-35 sm qorovul qoziqni yerdan 10-20 sm chiqqan holatda qoqiladi. qorovul qoziqqa GK nomyeri yoziladi. Boshlang'ich nuqtani joydagi tafsilotlar bilan bog'lab, o'lchash ishi kamida 3 marta qaytariladi va bu bog'lanishni abris jurnali tuziladi. SHu nuqta ustiga teodolit o'rnatilib, oraliq nuqtalar hamda birinchi qayrilma uchiga vexalar o'rnatilib, bu yo'nalishning magnit azimuti aniqlanadi.

qayrilish burchagi bilan teodolit oralig'ida trassa o'qi bo'ylab har 60-100 mavexalar o'rnatiladi. SHu yo'nalish bo'yicha har 100 m da qoziqlar qoqilib, ular qorovul qoziq bilan mustahkamlanadi. Bu nuqtaga piket deyiladi. Trassa bo'ylab yuzasidagi egilish yoki ko'tarilish uchastkalariga ham qoziqlar bilan belgilanadi.

Boshlang'ich nuqta GKO bo'lsa, keyingilari shu nomyerining oshib borishi bilan belgilanadi (GK1, GK2 ...). Oraliq otmekalar nomyeri ketidagi GK nomyeriga, shu nuqtagacha bo'lgan masofani qo'shilishi bilan belgilanadi. (Gk1q20). Bunday nuqtalarni plyus nuqtalar deyiladi. Piketlash jurnali tuziladi.



9.5. Trassada qayrilmalarning asosiy elementlarini hisoblash va belgilash.

Trassaning burilish burchagida qayrilmaning asosiy elementlarini aniqlashga to'g'ri keladi. qayrilma radiusi har bir inshoot uchun standartdir va u texnikaviy sharoitga ko'ra tanlab olinadi.

Trassada AV yo'nalishi VS yo'nalishiga o'zgarganda bo'lajak inshoot o'qi bu ikkala yo'nalishga nisbatan surilgan holda bo'ladi, ya'ni AVS yoyini tashkil qiladi. Bunda markaziy burchaak AOS trassa qayrilish burchagi φ ga teng. OV kesmasi shu burchakni bissektisasidir. SHunday qilib V' nuqta yoyini o'rtasi hisoblanadi.

A, V'S nuqtalar qayrilmaning asosiy nuqtalari hisoblanib, ularni o'z navbati bilan KB, KU, KO deyiladi.

Joyda bu nuqtalarni belgilash uchun qayrilish burchagi va R dan tashqari quyidagi qayrilmani to'rt asosiy elementlarini aniqlash kyerak.

1. YOyga urinma bo'lgan AVqVSqT va tangens deb nomlangan kesma uzunligi

$$T = R \cdot \operatorname{tg} \frac{\alpha}{2}$$

2. AV'S yoy uzunligi - K qayrilmani


$$K = \pi \cdot R \cdot \frac{\alpha}{180^\circ};$$

3. YOy o'rtasi V' dan trassa qayrilish burchagi V gacha bo'lgan masofa B - bissektisa.

$$B = OB - OB' = \frac{R}{\operatorname{Cos} \frac{\alpha}{2}} - R$$

bundan $B = R \cdot \left(\operatorname{ctg} \frac{\alpha}{2} - 1 \right)$

Kontrol uchun qayrilma oxirini piketaj nomi quyidagi formulalardan birida tekshiriladi



9.1-rasm

Nazorat savollari:

1. Trassa nima ? Kamyeral trassalash nima ?
2. Uzala trassalash deb nimaga aytiladi ?
3. Trassani loyixalash uchun kidiruv ishlarida kandy masalalar xal kilinadi.

Mavzu: Avtomobil yo'llarini qurishda geodezik ishlar

Reja

1. Rejalash ishlaridagi asosiy elementlari va ularni joyiga kuchirish.
2. Maydonlarni vertikal planirovka qilishdagi geodezik ishlar.
3. Qurilish — montaj ishlarini aniq bajarish, uni geodezik nazorati va ijroya tasviri.

Tayanch so'z va iboralar.

Rejalash elementlari, rejalash turlari loyika nuqtasi, loyiha o'zunligi, loyiha balandligi, vertikal planirovka, ijroya tasvir, geodezik nazorat, vizirlash belgisi.

1. Rejalash ishlaridagi asosiy elementlari va ularni joyiga kuchirish.

Rejalash turlari planli va balandlik bo'yicha barpo qilinib, ular inshootni hajmiga, shakliga, rejalash aniqligi bo'lib bo'ladi.

Planli tayanch turlar asosi qilib davlat turlari, zichlangan turlar, qurilish uchun yangi to'zilgan turlar qabul qilinishi mumkin. Mazkur turlar uch burchak, poligan teskari yo'llari kabi shaklda bo'lib inshootlarni qo'rish talabiga javob berishi kerak. Inshootni barcha asosiy uqlari va asosiy nuqtalari tayanch turlarga bog'langan bo'lishi shart. Bu nuqtalar va uqlar bosh inshootlarni rejalashdagi geometrik asos hisoblanadi va loyika o'lchamlari aks shu asos joylanishiga ko'ra beriladi.

Balandlik bo'yicha rejalash turlari qator urnatilgan repyerlardan iborat bo'lib, davlat marka uoki repyerlariga bog'langan bo'ladi.

Rejalash ishlarida quyidagi usullar o'llaniladi:

- tug'ri burchakli koordinatalar usuli;
- qutbiy usul;
- chiziqni va burchakni tutashtirish usullari;

Rejalash va loyihani joyiga ko'chirish geodezik tasvir olish ishlarini teskari tartib bajarilib. Ishlab chikarishda rejalar elementlarini, ya'ni loyiha nuqtalarini, loyihasi gorizontal yo'nalishi burchagi, o'zunligi va nuqta balandligini hamda chiziq va noteksii qilishi joyga kuchirish ishlaridan iborat bo'ladi. Quyida rejalash usullari va ularni bajarish tartibini keltiramiz.

1. **Loyiha nuqshani joyiga ko'chirish.** Bu jarayon nuqtani holatini planda va balandlik bo'yicha aniqlash ishlaridan tashkil topgan bo'ladi.

a). Loyiha holatini planda ko'rsatishda to'g'ri burchakli koordinatalar tizimida tayanch chiziqdagi boshlang'ich nuqtadan absissa (h) uqta bo'yicha po'lat tasma bilan o'lchab quyiladi, so'ngra bu nuqtada uoki ekkyer bilan pyerpendiqo'lyar utkazib ordinata (U) bo'yicha po'lat tasma bilan loyiha nuqta o'rni aniqlanadi. Qutbiy usulda loyihada kursatigan nuqtaga tedonit urnatilib, tayanch chiziq bo'ylab «no'llar» tutashtirish usulida limb biriktirilib, so'ngra oldida bushatilib teodonish mikroskopida byerilgan burchak miqdori quyiladi va shu yo'nalishda masofa o'lchanib loyiha nuqtani joylanishi aniqlanadi.

b). Nuqtaning loyiha balandligini joyiga kuchirishda nuqta bilan yain uotgan repyer oraligiga nivalar urnatiladi. Repyer ustidagi reykanan sanoq olinadi va asbob sath balandligi (N_{sb}) hisoblanadi:

$$H_{c6} = H_{RP} + a \quad (10.1)$$

bu yerda — H_{RP} repyer balandligi; a — reykanan olingan sanok.

Sungra, asbobni sath balandligidan nuqtani loyiha balandligi (N_1) ayrilib, nuqtaga karaladi va reyka sanogi (v) aniqlanadi;

$$v = H_{RP} - N_L \quad (10.2.)$$

Nuqta ustiga urnatilgan kozikka reyka urnatilib, reyka sanogi hisoblangan v sanoriga tug'ri kelgunga kozik kutariladi uoki yerga kiritiladi.

Loyiha chizigini joyiga ko'chirish.

